



QOZOG‘ISTON BILAN PARLAMENTLARARO HAMKORLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISH MUHIMLIGI TA’KIDLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 26-oktabr kuni mamlakatimizda tashrif bilan bo‘lib turgan Qozog‘iston Respublikasi Parlamenti Majlisi Raisi Yerlan Koshanovni qabul qildi.



Uchrashuv avvalida Qozog‘iston Majlisining Raisi davlatimiz rahbariga Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Suhbatda ikki tomonlama munosabatlarning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi. O‘zbekiston bilan Qozog‘iston o‘rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari izchil mustahkamlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘zaro tovar ayirboshlash ko‘rsatkichlari va qo‘shma korxonalar soni barqaror o‘sib bormoqda, avtomobilsozlik, to‘qimachilik, elektrotexnika, logistika va boshqa tarmoqlarda kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Qozog‘iston Respublikasi Parlamenti Majlisi o‘rtasidagi Parlamentlararo kengashning bugun bo‘lib o‘tgan birinchi yig‘ilishining samarali natijalari alohida qayd etildi.

Oliy darajadagi kelishuvlarni so‘zsiz bajarish, hududlar o‘rtasidagi hamkorlikni va madaniy-gumanitar almashinuvni kengaytirish maqsadida yaqin parlamentlararo aloqalarni yanada rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi.

Qonun ijodkorligi faoliyati sohasida, o‘z-o‘zini boshqarish organlarini rivojlantirish va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash borasida tajriba almashish, shu jumladan, yosh deputatlar delegatsiyalarining tashriflarini tashkil etish hamkorlikning muhim yo‘nalishi sifatida belgilab olindi.

O‘ZA



NUQTAYI NAZAR

“YASHIL” TARAQQIYOT YO‘LIDAGI LOYIHALAR

Minglab chaqirim o‘lkalarga cho‘zilgan qadimiy Buyuk ipak yo‘li asrlar mobaynida tinchlik va hamkorlik bir-birini o‘rganish, o‘zaro muloqot makoni bo‘lib, xalqlar farovonligiga xizmat qilib kelgan. Bu yo‘l butun insoniyat tamaddunining bebaho boyligiga aylangani bilan ahamiyatlidir. Xitoy tomonidan ilgari surilgan “Bir makon, bir yo‘l” loyihasi “Buyuk ipak yo‘li”ning ahamiyatini, qadrini oshirishga qaratilib, davlatlar o‘rtasida siyosiy muloqotni faollashtirish, kommunikatsiyalarni birlashtirishga ko‘maklashish, savdo aloqalarini liberallashtirish, kapital harakatini ta‘minlashga xizmat qilayotganini ta’kidlash joiz.

O‘tgan yillar davomida o‘nlab davlatlar umumiy maqsad yo‘lida birlashdi, “Makon va yo‘l” tashabbuslarining geografik qamrovi Yevroosiyo dan Afrika va Lotin Amerikasigacha bo‘lgan makonni o‘z

ichiga oladi. 140 dan ziyod mamlakat va 30 ta xalqaro tashkilot “Bir makon, bir yo‘l” doirasida hamkorlik to‘g‘risidagi hujjatlarni imzolagan.

Davomi 2-betda



OLIY TA’LIM

BUGUN TALABANI AUDITORIYADA SHUNCHAKI USHLAB O‘TIROMAYSIZ...

UNI MUTAXASSISLIKKA QIZIQTIRISH UCHUN BOSHQACHA YO‘L TUTISH KERAK

Fan-texnika globallashuvi mamlakatimizda drayver sohalari, jumladan, sanoat, qishloq xo‘jaligi, veterinariya va chorvachilikni tubdan takomillashtirishni talab etmoqda. Hozir ishlab chiqarishdagi deyarli barcha soha shunchaki oliy ma’lumotlilarni emas, balki intellekti rivojlangan, ijodiy qobiliyatga ega, mustaqil fikrlaydigan, mehnat bozori raqobatini yengib o‘tadigan yosh mutaxassislarni jalb qila boshladi. Yoshlarga ta’lim-tarbiya berish, mutaxassislik sirlarini o‘rgatish bilan birga egallagan bilim va ko‘nikmasini bevosita ishlab chiqarish korxonalari bilan bog‘lashdek murakkab vazifalarni hal etish bugun OTMlar oldida turgan dolzarb masalalardan biriga aylanib ulgurdi.

Davomi 5-betda



PREZIDENT TASHRIFIDAN SO‘NG

YANGI MARRALAR, KELGUSI REJALAR BELGILANDI

Davlatimiz rahbari 24-25-oktabr kunlari Qashqadaryoga tashrifi davomida viloyatda mavjud imkoniyatlar ishga solinayotganini yuqori baholab, natijadorlikni oshirish borasida qator vazifalarni belgilab berdi. Viloyatda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik jarayonlari hamda Qarshi shahrida bunyod etilgan “Ona va bola” markazi faoliyati bilan tanishdi.



Qashqadaryo viloyati iqtisodiyoti barqaror rivojlanib, aholining turmush sharoiti kundan-kunga yaxshilanmoqda. Buni har bir yo‘nalishdagi natijalar misolida ham kuza-tishimiz mumkin.

Jumladan, joriy yilning birinchi yarim yilligi yakuni bo‘yicha vohada yalpi hududiy mahsulot hajmi 105 foiz (26 trillion so‘m), sanoat ishlab chiqarishi 106 foiz (14 trillion so‘m), qishloq xo‘jaligi 103 foiz (13 trillion so‘m), qurilish-pudrat ishlari 103 foiz (4 trillion so‘m), xizmat ko‘rsatish 113 foiz (9 trillion so‘m) o‘sd.

Mahalliy byudjet daromadlari 2 trillion 22 milliard so‘mni tashkil etib, qo‘shimcha 187 milliard so‘m jalb etildi. Hisobot davrida uch

yuz mingga yaqin aholi, shundan 78 mingdan ortiq yoshning bandligi ta‘minlandi. Albatta, bu natijalar o‘z-o‘zidan qo‘lga kiritilgani yo‘q. Islohotlarga keng yo‘l ochilishi, tadbirkorlik, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish samarasi bu.

Davlatimiz rahbarining bu galgi tashrifi ham mehnatkash, mard va tanti, zabardast vohaliklari uchun quvonchli voqealarga boy bo‘ldi. Qator imkoniyatlar eshigi ochilib, yangi bosqich sari dadil qadam tashlandi. 4-sahifamizda o‘z sohasining yetakchi va fido-yilari, ishbilarmon tadbirkorlar hamda tashabbuskorlarning tashrifga oid fikr-mulohazalari, taassurotlari bilan tanishasiz.

Davomi 4-betda

ENERGETIKA ISLOHOTIDAGI NAVBATDAGI VAZIFALAR KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev huzurida 26-oktabr kuni energetika bozori regulyatori faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari bo‘yicha taqdimot o‘tkazildi.

Mamlakatimiz energetika sohasi bosqichma-bosqich isloh qilib kelinmoqda. Birinchi bosqichda boshqaruv tizimi o‘zgartirildi. So‘nggi yillarda 22 ta elektr stansiyasi, jumladan, ilgari generatsiya bo‘lmagan viloyatlarda yangi stansiyalar ishga tushirildi. Elektr generatsiyasi tizimiga ilk bor xususiy kapital jalb qilinmoqda.

Hozirgi kunda jami quvvatlar 85 milliard kilovatt soatga yetgan. Kelgusi yillarda yana 20 gigavattlik quvvatlarni ishga tushirish mo‘ljallangan. Yetti milliard dollar xususiy sarmoya evaziga 9 gigavatt quvvat yaratish rejalashtirilgan.

Jadal rivojlanayotgan iqtisodiyotimiz va aholining o‘sib borayotgan talabini qondirish uchun elektr ishlab chiqarish hajmini kamida 120 milliard kilovatt soatga yetkazish maqsad qilingan. Yangi quvvatlarni ishga tushirish va tarmoqlarni to‘liq modernizatsiyalashga 52 milliard dollar investitsiya zarurligi hisob-kitob qilingan.

Bunday katta hajmdagi investitsiyalarni xususiy sektor ishtirokisiz shakllantirib bo‘lmaydi. Sohaning xususiy investorlar uchun jozibadorligini oshirish uchun esa, xalqaro tajriba ko‘rsatganidek, eng avvalo, ochiq raqobat muhitiga ega energetika bozorini yaratish kerak.

Ayni shu maqsadlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining shu yil 28-sentabrdagi “Energetika sohasini isloh qilishning navbatdagi bosqichini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida belgilangan.

Unga ko‘ra, 2026-yilga borib, elektr energiyasi talab va taklif asosida shakllanadigan erkin, ulgurji bozor ishga tushadi. Shu bilan birga, normativ-huquqiy bazani shakllantirish, bozor infratuzilmasini yaratish, energetika tizimini eng quyi bo‘g‘iniga qadar raqamlashtirish, inson omilisiz real vaqtda ishlaydigan aqlli boshqaruv tizimini (SCADA) joriy etish zarur.

Ko‘plab davlatlarda bu islohotlar uchun 15 yil vaqt ketgan. Mamlakatimizda buni uch bosqichda, 2030-yilgacha yakunlash rejalashtirilgan.

O‘ZA



JAMIYATIMIZNING YANGI QIYOFASI

“IKKI EHTIYOJ” VA “UCH KAFOLAT” TAMOYILI

ishsizlikni kamaytirish va kambag‘allikni qisqartirish bilan qo‘r oladi

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida xalqimiz turmush darajasini oshirishga qaratilgan siyosat tufayli mamlakatimizda 2017-yildan buyon kambag‘allik ikki barobarga qisqargani, 2030-yilgacha uni 7 foizga tushirish reja qilingani haqida ma’lum qildi.

Bu gap zamirida yangi O‘zbekistonning ochiqlik siyosati va xalqparvar islohotlari mazmuni aks etadi. Nima uchun shunday? Negaki, biz yaqin-yaqiniga oddiy insonlar turmushidagi bor haqiqatlarni, hayotdagi reallikni yashirib keldik. Shu jumladan, mamlakatimizda kambag‘allik mavjudligi haqida lom-mim demadik.

Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi, deyilganidek, O‘zbekiston xalqining haqiqiy turmush sharoitini yashirishning iloji yo‘q edi. Bu haqda xorij nashrlari qayta-qayta bong urardi, biz esa ularni nohaqiqatda ayblashdan nariga o‘tmasdik.

Aslida esa kambag‘allik mavjudligini yashirmasdan, unga qarshi kurashsak, ish o‘rinlari ko‘paysa, odamlar doimiy daromad manbai ega bo‘lsa kishilar farzandlarini

o‘qitishi, jamiyatga elim deyigan, bilimli, salohiyatli yosh kadrlarni yetkazib berishini e’tiborga olmadik.

Bugun jamiyatimizda bu qarashlar tubdan o‘zgardi. O‘zbekistonda ham kambag‘al oilalar borligi ochiq aytili. Xalqni ijtimoiy va moddiy qo‘llab-quvvatlash, ish bilan ta‘minlash davlatimizning ustuvor vazifalaridan biriga aylandi.

Jamiyatga nazar solsak, bu boradagi chora-tadbirlar avvalgidek qog‘ozda emas, real hayotda aks etayotganiga guvoh bo‘lamiz: ish o‘rinlari ko‘paymoqda, aholi bandligini ta‘minlash tadbirkorlarga har tomonlama imtiyozlar berilmoqda, ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollar yangi tizim orqali qamrab olinib, qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Davomi 3-betda



NUQTAYI NAZAR

“YASHIL” TARAQQIYOT YO‘LIDAGI LOYIHALAR



Ilhomjon TO‘XTASIMOV,
pedagogika fanlari doktori,
professor



Boshlanishi 1-betda

Joriy yil uchinchi marta “Bir makon, bir yo‘l” xalqaro hamkorlik forumi o‘tkazildi. 20 dan ziyod tematik platformaga asos solingan loyiha doirasida rivojlanayotgan davlatlarda uch mingta loyiha ishga tushirilgani, ularga deyarli bir trillion dollar sarmoya kiritilgani tashabbusning mafkuraviy qarama-qarshiliklardan xolligidan dalolat beradi. Tashabbus ham amaliy loyihalar, ham institutsional tuzilmalar bilan boyib bormoqda. Qo‘shma maslahatlashuvlar, birgalikda olib borilayotgan qurilishlar, aholining farovonligi va barqaror o‘shish, ochiq va halol rivojlanishni mo‘ljallagan holda yuksak marralarni egallash tamoyiliga aylandi.

Misollarga murojaat qiladigan bo‘lsak, “Bir makon, bir yo‘l” doirasidagi loyihalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida Xitoy Eksimbanki va Taraqqiyot banki 350 milliard yuan miqdorida, Ipak yo‘li fondi 80 milliard yuangagacha kredit liniyalarini ochmoqda. Bu galgi forum doirasida o‘tkazilgan Bosh ijrochi direktorlar kon-

ferensiyasida 972 milliard AQSH dollariga teng shartnomalar imzolandi. Xitoy odamlar hayotini yaxshilash maqsadida yana 1000 ta loyihani amalga oshirmoqchi.

Qolaversa, Xitoy o‘z tashabbusi doirasida Yevropaga o‘nlab milliard dollar sarmoya kiritdi. Gretsiyaning Pirey porti tashabbus doirasida eng ko‘p sarmoya kiritgan hududlardan sanaladi. Mablag‘lar Gretsiya iqtisodiyotini ko‘tardi. 2013-yildan buyon port bilan ishlaydigan konteynerlar soni besh barobar ortgan. Yevropa Ittifoqining o‘ndan ortiq davlati tashabbusga a‘zo. Pekin G‘arbiy Bolqon va Sharqiy Yevropada ko‘plab loyihalarni, jumladan, Xitoyni Yevropa bilan bog‘lovchi temir yo‘llarni ham moliyalashtirgan. Vengriya 2022-yilda Xitoy investitsiyasini eng ko‘p jalb qilgan davlat bo‘ldi. Bu yerda yangi magistrallar qurildi. Budapesht-dan Serbiya poytaxti Belgradgacha temir yo‘li liniyasi yotqizilmoqda.

Pekindagi forumda qatnashgan davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, jahondagi yetakchi davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch inqirozi tufayli vujudga kelgan hozirgi geosiyosiy beqarorlik sharoitida

ushbu dasturning o‘rni va ahamiyati beqiyos. Ikki mamlakat hamkorligi haqida so‘z ketganda, iqlim masalalari doimiy e‘tiborda bo‘lib kelayotganini ta’kidlash o‘rinli. Chunki O‘zbekiston va butun Markaziy Osiyo jahondagi iqlim o‘zgariishi oqibatlaridan eng ko‘p zarar ko‘rayotgan mintaqalardan biridir. Xitoyning “Yashil ipak yo‘li” tashabbusi iqlimni yaxshilashga qaratilgan bo‘lib, umumiy “yashil” kelajak kun tartibini shakllantiradi. Ya’ni bizning mamlakatimizga ham foydasi bor. Ushbu g‘oya Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin tomonidan ilk bor 2016-yilda aynan bizning mamlakatimizda e‘lon qilingani hammamizga yaxshi ma’lum. Hozirgi vaqtda mintaqamiz mamlakatlari global isish, ekologik muvozanat buzilishining anomal ob-havo sharoitlari, tez-tez yuz berayotgan qurg‘oqchilik va chang bo‘ronlari, yerlarning degradatsiyaga uchrashi va cho‘llanishi, bioxilma-xillikning yo‘qolishi kabi jiddiy tahdidlardan aziyat chekayotgani ayni haqiqat. Hatto Markaziy Osiyoda o‘rtacha havo haroratining oshib borishi dunyodagi umumiy ko‘rsatkichlardan ikki marta yuqori.



BIZ VA DUNYO

BUTUNIAHON OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI QO‘MITASI YIG‘ILISHIDA “O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASI TAQDIM ETILDI

BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkilotining (FAO) Rimdagi qarorgohida Butunjahon oziq-ovqat xavfsizligi qo‘mitasining 51-sessiyasi bo‘lib o‘tmoqda.



Tadbirida “2023-yil dunyoda oziq-ovqat xavfsizligi va oziqlanish holati to‘g‘risida”gi hisobot ishtirokchilar e‘tiboriga havola qilindi. Hisobotda ocharchilikka barham berish, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash va oziqlanishni yaxshilash maqsadlariga erishishdagi muammolar hamda yuzaga kelayotgan tendensiyalar chuqur tahlil qilingan.

Sesssiyaning umumiy yig‘ilishida O‘zbekiston vakili so‘zga chiqib, mamlakatda amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida so‘nggi olti yilda kambag‘allik ikki barobarga qisqarganini ta’kidladi. Taqdim etilgan hisobotda O‘zbekistondan oziq-ovqat xavfsizligi darajasi, yosh bolalarda o‘shish sur‘ati va vazn yo‘qotish kabi ko‘rsatkichlar yaxshilangani aks etgani ta’kidlandi.

O‘zbekiston vakili, shuningdek, joriy yil sentyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining mazmun-mohiyati va ahamiyati bilan ishtirokchilarni tanishtirdi. Qayd etilganidek, 2030-yilga qadar mamlakatimizda kambag‘allikni 7 foizga tushirish rejalashtirilgan. Yangi strategiyada qishloq xo‘jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini oshirish uchun sohaga jami 15 milliard

dollar investitsiya jalb qilinishi belgilangan. Shuningdek, iqlim o‘zgariishi, bioxilma-xillik, ekologik vaziyat, xususan, Orol dengizi qurishi natijasida yuzaga kelgan muammolarning salbiy ta‘sirini yumshatish bo‘yicha qat‘iy choralar belgilanganiga urg‘u berildi.

Butunjahon oziq-ovqat xavfsizligi qo‘mitasi yig‘ilishida, shuningdek, gender tengligi, xotin-qizlar huquqlarini ta‘minlash va yoshlarni qishloq xo‘jaligiga jalb qilish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilishi nazarda tutilgan.

Butunjahon oziq-ovqat xavfsizligi qo‘mitasining vazifasi dunyoda oziq-ovqat xavfsizligi holati bo‘yicha davriy hisobot tayyorlash, global ahamiyatga ega strategiya va boshqaruv qoidalarini ishlab chiqishdan iborat. Qo‘mita tomonidan qabul qilingan hujjatlar yuqori nufuzga ega bo‘lib, uning hisobotlari FAO Konferensiyasi va BMT Bosh Assambleyasi tomonidan baholalanadi.

“DUNYO” AA
Rim



IJTIMOIY HAYOT

MAHALLALARDA SHUNDAY AYOLLAR BOR

Sayyora Qoraboyeva 2019-yilda Amudaryo tumanidagi “Farovon” mahalla fuqarolar yig‘inida xotin-qizlar faoli sifatida ish boshlagunga qadar 31-maktabda o‘quvchilarga ona tili va adabiyot fanidan saboq berib kelardi. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti o‘zbek filologiyasi fakultetini tamomlagan Sayyora uchun o‘quvchi yoshlar, hamkasblari, ota-onalar bilan ishlash hayotiy tajriba maktabi bo‘ldi. Shundanmi, Farovon mahallasi xotin-qizlar faoli sifatida ish boshlaganida aholi bilan muloqot borasida aslo qiynalmadi, ustoz sifatidagi ko‘p yillik tajriba mahalla ahli bilan til topishib ketishida muhim omil bo‘ldi.

Hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi va MFY kengashi a‘zolari bilan hamkorlikda faoliyatini xonadonbay ishlashdan boshlagan Sayyoraning yon daftari 1261 ayol-qiz, ularning turmush tarzlariga oid yechimini kutayotgan muammolar yuzasidan aniq ma’lumotlar shakllandi. Avvalo, muayyan sabablar bilan uyida o‘tirib qolgan, lekin ishlash istagida bo‘lgan ayollar bandligini ta‘minlash maqsadida ular bilan alohida suhbatlar o‘tkazdi. Mahalladagi hokim yordamchisi Muqaddas Beknazarova bilan hamkorlikda ishsiz xotin-qizlarning tadbirkorlik qilishi uchun imtiyozli kredit olishiga ko‘maklashildi.

— 18 ayol-qizning turli yo‘nalishlarda tadbirkorlik bilan shug‘ullanish bo‘yicha biznes g‘oyalari to‘liq o‘rganilib, imtiyozli kreditlar olib berildi. Bundan tashqari, ishsiz 11 ayol jamoat ishlari-ga jalb etildi, — deydi “Farovon” MFY xotin-qizlar faoli Sayyora Qoraboyeva. — Shuningdek, 2023-yilda 4-bosqich “Ayollar daftari”ga 71 xotin-qiz kiritildi. Jiddiy o‘rganishlar natijasida 18 nafar ehtiyojmand xotin-qizning bandligi ta‘minlandi. Hokim yordamchisi bilan doimiy hamkorlik natijasida ishsiz, ehtiyojmand 3 ayolga subsidiya asosida issiqxona qurib berildi.

Sayyora Qoraboyeva xalq orasiga kirib borgan sari oilalar muhiti sog‘lom, ayol-qizlar ko‘ngli xotirjamligi, ularning ijtimoiy faolligini oshirish bugungi davr talabi ekanini chuqur anglab boraveradi.

Mahalladagi nogironligi bo‘lgan va boquvchisini yo‘qotgan ayollar holidan xabar olish, ular hayotiga oid muammolarni birinchi galda hal etish Sayyora Qoraboyeva faoliyatidagi doimiy dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Ularning uy-joylarini ta‘mirlab berish, ijtimoiy yor-

“ Prezidentimiz o‘z nutqida aytib o‘tganidek, 2024-yil Markaziy Osiyoda “yashil” taraqqiyot sohasidagi maqsadlarga erishish yo‘lida fikr almashish va sa‘y-harakatlarni birlashtirish uchun Samarqand xalqaro iqlim forumini o‘tkazish rejalashtirilgan. Bunda albatta, Xitoy kabi strategik sheriklarimizning ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Chin o‘lkasining “Yashil ipak yo‘li” doirasida keng ko‘lamli xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdor. Ana shu maqsadlardan kelib chiqib, davlatimiz rahbari juda dolzarb va asosli takliflarni ilgari surdi. Eng avvalo, “Markaziy Osiyoning “yashil” kun tartibi” va “Yashil ipak yo‘li” konseptual tashabbuslarini o‘zaro bog‘liq holda amalga oshirish taklif etildi. Bunda iqtisodiyot tarmoqlarini “yashil” taraqqiyot talablari asosida transformatsiya qilish va raqamlashtirish, transport va energetika tarmoqlarida barqaror infratuzilmani yaratish, “yashil” sanoat quvvatlarini ishga tushirish, kambag‘allikni qisqartirish va “aqli” qishloq xo‘jaligini rivojlantirish talab etiladi.

“Yashil” ishlab chiqarish zanjirlari va innovatsiyalarni rivojlantirish sohasida amaliy hamkorlikni kengaytirish ham dolzarb. Bu borada Xitoy kompaniyalari tajribasi juda katta. Prezidentimiz Xi-

toyning yetakchi kompaniyalari bilan birgalikda va boshqa xorijiy hamkorlarni jalb etgan holda, “yashil texnologiyalar”ni keng joriy qilish asosida sanoat sohasida va muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan dasturlarni amalga oshirish uchun Orolbo‘yi mintaqasida Maxsus namunalni texnologik park tashkil etilishini bildirdi. Bu maqsadlar Orol fojiasini yumshatishda muhim rol o‘ynaydi. Demakki, “Makon va yo‘l” dasturining “yashil” investitsiyalar tamoyillari” borasidagi tashabbusi biz uchun ham foydali. Qolaversa, davlatimiz rahbari O‘zbekistonda “Yashil” moliyalashtirish jamg‘armasini ta‘sis etishni taklif qildi. Uning ahamiyati shundaki, jamg‘arma kam uglerodli iqtisodiyot va “toza” texnologiyalarni rivojlantirish, shuningdek, mintaqa mamlakatlarda yuqori ekologik standartlarni joriy etish uchun moliyaviy resurslarni safarbar qilishning ta’sirchan vositasiga aylanadi.

Shu o‘rinda Prezidentimiz ta’kidlagan yana bir masalaga to‘xtalmoqchiman. Jamiyatda tabiiy resurslar va atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish bo‘yicha an‘anaviy qadriyatlarini, madaniyatni qaror toptirmasdan turib, “yashil” taraqqiyotni ta‘minlab bo‘lmaydi. Tabiatga nisbatan bepisandlik, adolatsizlik, e‘tiborsizlik sizni bizni bugungi og‘ir ekologik ahvolda olib keldi. “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi doirasida “yashil” madaniyatni rivojlantirish bo‘yicha Global dasturni ishga tushirishni va unda etno-ekologik festivallar, forumlar, mamlakatlariimizdagi taniqli jamoat arboblari, fan, biznes va madaniyat namoyandalari ishtirokida taqdimotlar va tadbirlar o‘tkazishni nazarda tutish taklif etilgani ham bejiz emas. Negaki, ekologik madaniyatni targ‘ibotsiz shakllantirib bo‘lmaydi.

Xitoy bilan O‘zbekiston o‘rtasidagi aloqalar izchil rivojlanib bormoqda. Davlatimiz rahbarining Xitoyga tashrifi doirasida Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin bilan uchrashuvi chog‘ida mamlakatlar o‘rtasidagi erishilgan kelishuvlar izchil bajarilayotgani, ko‘p

fadagi obod va fayzli go‘shalardan. MFY mas‘ullari hududdagi xonadonlarda tez-tez bo‘lib, ishsiz, ishlashga ehtiyoji bor fuqarolar bandligini ta‘minlashga, ularga munosib turmush sharoitlari yaratishga harakat qilishadi. Ayniqsa, manzilli qo‘llab-quvvatlash daftarlari-ga kirilgan yoshlar, ayollarning holidan xabar olinib, imkon qadar qo‘llab-quvvatlanmoqda.

“Ayollar daftari”ning 6-toifasiga ro‘yxatga olingan Shahlo Bekmurodova 5 farzandning onasi. U uzoq yillar farzandlari tarbiyasi bilan shug‘ullandi. Turmush o‘rtog‘i Rustam O‘taboyev ishlab, oilasini ta‘minlab qo‘yishga harakat qilayotgan bo‘lsa-da, Shahlo bekor o‘tirishni o‘ziga ep ko‘rmadi.

Mamlakatimizda ayol-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning hech kimdan kam bo‘lmay mehnat qilishi, iqtidorini namoyon etishiga sharoit yaratish yo‘lidagi ishlarni unga dalda bo‘ldi. Ishlash istagini, lekin farzandlarini qarovsiz qoldirib keta olmasligini mahalla fuqarolar yig‘ini mas‘ullariga borib aytdi. Ularning maslahatiga ko‘ra, tikuvchilikni boshlab, o‘zini o‘zi band qildi.

— Bolaligimda buvim menga do‘ppi, kiyimlar tikishni o‘rgatgan, har bir qizning qo‘lida hunari bo‘lsa, hayotda qiynalmaydi, deya ko‘p nasihat qilardi, — deydi Shahlo Bekmurodova. — Shu tariqa yillar o‘tib, chevar bo‘ldim. Dastlab Mang‘itdagi, keyinchalik Toshkentdagi tikuv sexlarida ishladim.

Shahlo Bekmurodovaning buvisidan o‘rgangan bu hunari hayotida juda asqotadi. Hozir ham oilasida, farzandlariga ko‘z-quloq bo‘lib tikkan kiyimlari mijozlarga manzur bo‘lmoqda. U buyurtma asosida turli xildagi ayollar, erkaklar va bolalar kiyimlarini tikishdan tashqari, mahsulotini bozorga ham chiqaradi.

— Ota-bobolarimiz “Hunar — hunardan rizqing unar”, deb bejiz ayt-magan. Qolaversa, nechta hunaring bo‘lsa-da, ko‘plik qilmaydi odamga, — deydi Shahlo Bekmurodova. — Shu bilan birga, 5,5 million so‘m imtiyozli kreditga pishiriqlar pishiradigan uskuna sotib oldim va bu borada ham ancha mahoratga ega bo‘ldim.

Tinib-tinchimas ayol yaqinda tadbirkorlik asoslari bo‘yicha kursda o‘qib, maxsus sertifikat oldi va faoliyatini kengaytirish, tadbirkor sifatida tikuv sexi ochish niyatidagini aytdi.

qirrali munosabatlarni yanada chuqurlashtirishga qaratilgan asosiy masalalar borasida tomonlar bir-birini qo‘llab-quvvatlayotgani alohida mamnuniyat bilan ta’kidlandi.

Jumladan, ta’lim, fan va madaniyat so-halaridagi hamkorlik ham o‘z samarasini berayotgani borasida to‘xtalib, yoshlar orasida xitoy tilini o‘rganishga qiziqish ortib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etilgani alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida 1990-yildan buyon xitoy tili o‘rgatilib kelinmoqda. Hozirgi kunda 800 ga yaqin talaba xitoy tilini asosiy va ikkinchi til sifatida o‘rganmoqda. Ularga 13 nafar mahalliy va 12 nafar xitoylik mutaxassis dars beradi.

Talabalarining til malakasini oshirish hamda Xitoy madaniyati va urf-odat-lari bilan yaqindan tanishishini ta’minlash maqsadida Xitoy hukumati hamda hamkor oliygohlar granti asosida 52 talabamiz 1 yil muddatga ushbu mamlakatga yuborilgan. O‘z navbatida, 40 nafar xitoylik talaba magistratura mutaxassislilklari va bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida tahsil olmoqda. Oliygox Xitoyning Pekin chet tillar universiteti, Changchun milliy universiteti, Konfutsiy instituti, Sharqiy Liaodong universiteti, Lanjou universiteti, Shanxay chet tillar universiteti, Nankin politexnika universitetlari bilan hamkorlik qilib keladi.


“Bir makon, bir yo‘l” uchinchi xalqaro forumi mamlakatlar o‘rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlab, bu boradagi yangi bosqichni boshlab beradi. O‘zbekiston rahbarining ushbu forumdagi ishtiroki esa mamlakatimiz xalqaro hamkorlikka katta ahamiyat berayotgani va global iqtisodiy muloqotga salmoqli hissa qo‘shish niyatida ekanidan dalolatdir. Davlatimiz rahbari tomonidan e‘lon qilingan tashabbuslar milliy va mintaqaviy rivojlanishimiz uchun juda muhimdir.



BIZ VA DUNYO

BUTUNIAHON OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI QO‘MITASI YIG‘ILISHIDA “O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASI TAQDIM ETILDI

BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkilotining (FAO) Rimdagi qarorgohida Butunjahon oziq-ovqat xavfsizligi qo‘mitasining 51-sessiyasi bo‘lib o‘tmoqda.



Tadbirida “2023-yil dunyoda oziq-ovqat xavfsizligi va oziqlanish holati to‘g‘risida”gi hisobot ishtirokchilar e‘tiboriga havola qilindi. Hisobotda ocharchilikka barham berish, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash va oziqlanishni yaxshilash maqsadlariga erishishdagi muammolar hamda yuzaga kelayotgan tendensiyalar chuqur tahlil qilingan.

Sesssiyaning umumiy yig‘ilishida O‘zbekiston vakili so‘zga chiqib, mamlakatda amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida so‘nggi olti yilda kambag‘allik ikki barobarga qisqarganini ta’kidladi. Taqdim etilgan hisobotda O‘zbekistondan oziq-ovqat xavfsizligi darajasi, yosh bolalarda o‘shish sur‘ati va vazn yo‘qotish kabi ko‘rsatkichlar yaxshilangani aks etgani ta’kidlandi.

O‘zbekiston vakili, shuningdek, joriy yil sentyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining mazmun-mohiyati va ahamiyati bilan ishtirokchilarni tanishtirdi. Qayd etilganidek, 2030-yilga qadar mamlakatimizda kambag‘allikni 7 foizga tushirish rejalashtirilgan. Yangi strategiyada qishloq xo‘jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini oshirish uchun sohaga jami 15 milliard

dollar investitsiya jalb qilinishi belgilangan. Shuningdek, iqlim o‘zgariishi, bioxilma-xillik, ekologik vaziyat, xususan, Orol dengizi qurishi natijasida yuzaga kelgan muammolarning salbiy ta‘sirini yumshatish bo‘yicha qat‘iy choralar belgilanganiga urg‘u berildi.

Butunjahon oziq-ovqat xavfsizligi qo‘mitasi yig‘ilishida, shuningdek, gender tengligi, xotin-qizlar huquqlarini ta‘minlash va yoshlarni qishloq xo‘jaligiga jalb qilish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilishi nazarda tutilgan.

Butunjahon oziq-ovqat xavfsizligi qo‘mitasining vazifasi dunyoda oziq-ovqat xavfsizligi holati bo‘yicha davriy hisobot tayyorlash, global ahamiyatga ega strategiya va boshqaruv qoidalarini ishlab chiqishdan iborat. Qo‘mita tomonidan qabul qilingan hujjatlar yuqori nufuzga ega bo‘lib, uning hisobotlari FAO Konferensiyasi va BMT Bosh Assambleyasi tomonidan baholalanadi.

“DUNYO” AA
Rim



Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



JAMIYATIMIZNING YANGI QIYOFASI

“IKKI EHTIYOJ” VA “UCH KAFOLAT” TAMOYILI

ishsizlikni kamaytirish va kambag‘allikni qisqartirish bilan qo‘r oladi



Jonibek ALIJONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Lekin faqatgina ish o‘rni yaratishning o‘ziga muammoni to‘liq hal etmaydi. Ishsizlarga munosib mehnat qilishi uchun kasb o‘rgatish masalasi ham g‘oyat muhimdir.

Xitoyliklarda shunday mazmundagi hikmat bor: “Kambag‘alni boy qilmoqchi bo‘lsang, unga baliq berma, aksincha, qarmoq sovg‘a qilib, baliq tutishni o‘rgat. Qolganini o‘zi uddalaydi”.

Mamlakatimizda ishsiz, ijtimoiy hi-moyaga muhtoj fuqarolarga kasb o‘rgatish masalasiga davlat siyosati darajasida e‘tibor qaratilayotganing boisi ham shunda.

Prezidentimiz raisligida joriy yil 15-may kuni kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta‘minlashda yangi bosqichga bo‘lsang, unga baliq berma, aksincha, qarmoq sovg‘a qilib, baliq tutishni o‘rgat. Qolganini o‘zi uddalaydi”.

Yig‘ilishda tumanlar 5 ta toifaga ajratilib, har biriga sharoitiga qarab yengilliklar berilgani, har yili oilaviy tadbirkorlik uchun 13 trillion so‘m kredit va 1,5 trillion so‘m subsidiya ajratilayotgani, natijada o‘tgan yili 1 million, 2023-yilning birinchi choragida 210 ming aholi kambag‘allikdan chiqarilgani, shuningdek, “Temir daftar”, “Ayollar daftar” va “Yoshlar daftar” hamda ijtimoiy himoya reyestri orqali 2 million 300 ming muhtoj oilalar, xotin-qizlar, yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan vatan-doshlarimiz moddiy yordam bilan to‘liq qamrab olingani qayd etildi. Shuningdek, har yili kasb-hunarga o‘qitishga 200 milliard so‘m ajratilayotgani, ammo bu mablag‘lar tadbirkorlik subyektlarining mutaxassislarga ehtiyoji bilan bog‘lanmagani ko‘rsatib o‘tiladi.

Prezidentimiz aholi bandligini ta‘minlash va malakali mutaxassislar tayyorlash samaradorligini oshirish maqsadida tadbirkorlikka yanada keng imkoniyatlar yaratish va moliyaviy rag‘batlar taqdim etish zaruriligi qayd etib, shu maqsadda 1-iyundan boshlab “20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis” dasturi amalga oshirilishini aytgan edi.

Ma‘lumki, yurtimizda aholini kambag‘allikdan qutqarishda Xitoy tajribasidan foydalanib kelinmoqda. Videoselektor davomida davlatimiz rahbari mazkur tajribani joriy etish masalasi haqida ham gapirib, mutasaddilarga xitoylik ekspertlar bilan birga tanlab olingan 14 tumanli kambag‘allikdan chiqarish uchun kompleks rivojlantirish dasturini ishlab chiqish hamda hokim yordamchilarini o‘qitish, yaxshi natijaga erishgan kamida 200 nafar salohiyatli hokim yordamchisini Xitoyga amaliyot o‘tash uchun yuborish vazifasini qo‘ygan edi.

Kambag‘allikka qarshi kurashishda nega aynan Xitoy tajribasi tanlandi? Bu qanday tajriba? Mazkur tizim asosida qanday ishlar amalga oshirildi?

— Xitoy Xalq Respublikasida kambag‘allikni qisqartirish islohotlari 1970-yillardan boshlangan bo‘lib, ishlab chiqilgan chora-tadbirlar va dasturlarda asosiy e‘tibor qishloq xo‘jaligini isloh qilish, chegara hududlarini rivojlantirish, sog‘liqni saqlash va ta‘lim sifatini yaxshilash, kambag‘allik darajasi yuqori bo‘lgan joylarda chikich sanoat zonalarini tashkil etish orqali aholi bandligini ta‘minlashga qaratilgan, — deydi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Hokim yordamchilari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i Muzaffar Abdurahimov. — Buning natijasida 2020-yilgacha qariyb 850 millionga yaqin aholi kambag‘allik domidan chiqarilgan hamda 2020-yili 17-oktyabrda mamlakatda kambag‘allik

ustidan g‘alaba qozonilgani rasman e‘lon qilingan.

Xitoyda kambag‘allikni qisqartirishda o‘ziga xos “Ikki ehtiyoj”, “Uch kafolat” tamoyiliga amal qilingan.

“Ikki ehtiyoj” tamoyili deganda, mamlakatda yashovchi aholini ikki muhim omil — oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta‘minlash tushuniladi. Ushbu maqsadga erishish Xitoy hukumatiga aholini qashshoqlikdan chiqarish imkonini berdi.

“Uch kafolat” esa hukumat tomonidan aholining uchta asosiy ijtimoiy himoya yo‘nalishini kafolatlash prinsipidir. Bular: aholiga majburiy va yuqori sifatdagi o‘rta ta‘lim, tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini yaratish hamda kambag‘allarni barcha standartlarga muvofiq boshpana bilan ta‘minlash.

Ushbu ommaviy tadbirlar kambag‘allar sonini keskin qisqartirish imkonini berdi. Shu bilan birga, davlat keyinchalik boshqa yo‘nalishlar va vazifalarni qo‘shimcha ravishda belgilab olgan. Qishloq xo‘jaligi sektorini rivojlantirish, taraqqiyotdan ortda qolayotgan provinsiya va hududlarni sanoatlashtirish, qishloqlar ahamiyatini tubdan o‘zgartirish va zarur sharoitlarni yaratish shular jumlasiga kiradi.

Mamlakatdagi kambag‘allar qatlamining aksariyati qishloqlarda yashashini inobatga olgan holda, uning darajasini kamaytirish bo‘yicha strategiya va loyihalar ishlab chiqish jarayonida hukumat tomonidan qishloqlarni qo‘llab-quvvatlashga, ularni tubdan o‘zgartirishga katta urg‘u berilgan.

Shu bilan birga, Xitoyda kambag‘al oilalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha quyidagi vositalardan foydalanilgan:



— qishloqlardagi qashshoq fuqarolarga tegishli yerlardan foydalanish uchun gektariga yiliga 3000-4500 yuan subsidiya taqdim etilgan. Agar ushbu yer maydonida issiqxona qurilgan bo‘lsa, har 1 gektar maydon uchun qo‘shimcha ravishda bir martalik 3500 yuan subsidiya (mintaqaga va issiqxona turlariga qarab farq qilgan) ajratilgan;

— ijaraga olingan yerlarni ikkilamchi ijaraga berib, daromad olish imkoni yaratilgan;

— kambag‘al oilalar uchun “5-3-0” dasturi asosida mikrokredit, ya‘ni 50 ming yuan (hozirda 7000 AQSH dollari), 3 yilga, foizsiz, kafolatsiz va moliyaviy chegirmasiz taqdim etilgan;

— davlat tomonidan tashkil etilgan issiqxona plantatsiyalari kambag‘al



oilalarga 20 sotixdan 2 yil muddatga ijara shartnomasi asosida ajratilgan. Bu yerda ularni o‘qitib, ekin ekishdan tortib, hosilni sotishgacha bo‘lgan jarayonlar “Lider tadbirkor” tomonidan kooperatsiya asosida boshqarib borilgan.

Shu o‘rinda savol tug‘ilishi tabiiy: nega biz aynan ushbu tajribani tanladik? Bu xususida Xitoyda tajriba o‘rganib qaytgan angorlik hokim yordamchisi O‘tkir O‘rozovning fikrlari qiziq.

— Kambag‘allikni qisqartirishda Xitoy tajribasining ahamiyatli jihati shundaki, unda aholi boqimandalik kayfiyatiga tushib qolishining oldini olishga alohida e‘tibor qaratilgan. Mehnatga layoqatli fuqarolarni kasb-hunarga o‘qitish va daromadli mehnat qilishga undash orqali kambag‘al oilalar turmush darajasi yaxshilangan, — deydi O‘.O‘rozov. — Shuningdek, har bir hududga kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha vakillar birlashtirilgan va oilalarning kambag‘allikka tushish sabablari o‘rganilib, ularning muammolarini bartaraf etish va kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha individual dastur tuzilgan hamda uning ijrosi ta‘minlangan.

Bu mamlakat tajribasi tanlanishiga sabab sifatida esa 1978-yilda kambag‘allikning eng og‘ir ko‘rinishi hisoblangan qashshoqlik darajasi aholining 85 foizini qamrab olgan Xitoy bugun jahon iqtisodiyotidagi ulushi yuqori va tez rivojlanayotgan qudratli davlatga aylangan bilan izohlash mumkin.

Hozirda Xitoy va rivojlangan boshqa mamlakatlarda kambag‘allikni qisqartirish, asosan, makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash orqali aholi farovonligini oshirishga e‘tibor qaratilmoqda.

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bergan ma‘lumotlarga ko‘ra, yurtimizda Xitoyning kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha tajribalari asosida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Masalan, 2,3 million nochor oilani kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha hokim yordamchilari tomonidan “Onlayn mahalla” platformasida “individual dastur” ishlab chiqildi hamda uning ijrosini ta‘minlash bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

Bunda hokim yordamchilari tomonidan 2023-yil uchun tasdiqlangan “Yo‘l xari-

talari”ga binoan, **birinchidan**, ko‘rilgan choralar natijasida 3,2 million fuqaroning daromadli mehnat bilan bandligi ta‘minlandi. Xususan, ularning 1,7 million nafari doimiy ish o‘rinlariga (shu jumladan, 15 ming bo‘sh vakant joylarga) joylashtirildi, 1 millioni o‘zini o‘zi band qildi, 72 ming fuqaro yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ish boshladi, 88 ming nafari haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb qilindi, 235 ming kishining ijara asosida yer ajratish hisobiga bandligi ta‘minlandi.

Ikkinchidan, “20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis” dasturi doirasida 5,9 ming tadbirkor bilan manfaatli hamkorlik shartnomasi tuzildi va ular tomonidan reyestrda 313 ming kishi bandligi ta‘minlanishiga asos bo‘ldi.

Uchinchidan, oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida hokim yordamchilari tavsiyanomalariga asosida 363 mingta loyihaga 7,5 trillion so‘mlik kreditlar ajratildi.

Bu kreditlarning 70 foizdan ortiq qismi xizmat ko‘rsatish va ishlab chiqarishga yo‘naltirilgani aholining tezda daromad topish imkoni yanada oshishiga hamda kreditlarning o‘z vaqtida qaytarilishiga olib kelmog‘da.

To‘rtinchidan, aholini tadbirkorlikka jalb qilish, ularga mehnat qurollari va asbob-uskunalar olib berish bo‘yicha 45,5 ming fuqaroga 202,7 milliard so‘mlik subsidiyalar ajratildi.

Beshinchidan, kasb-hunar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qishga 113 ming fuqaro yo‘naltirilib, “Ishga marhamat” monomarkazlari va boshqa nodavlat ta‘lim muassasalarida o‘qitildi.

Oldinchidan, hokim yordamchilari tomonidan shakllantirilgan 34 mingta (ish o‘lari 155 ming) “mahallabay” mikroloyihalaridan 15 mingtasi (44 foiz) ishga tushirilib, 57,5 mingta ish o‘rni yaratildi.

Yettinchidan, mahallalarda 67 ming yuridik va 73 mingta yakka tartibdagi tadbirkorlik subyekti davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi.

Sakkizinchidan, 2022-2023-yillarda ijara asosida ajratilgan 623 ming lotdan iborat 165 ming gektar yerdan samarali foydalanish holati hokim yordamchilari tomonidan xatlovdan o‘tkazilmoqda.

Vazirlik mutasaddilarining bildirishicha, mazkur tajribani joriy etish jadal davom etadi. Xususan, Statistika agentligi tomonidan olib borilgan uy xo‘jaliklari kuzatuv natijasiga ko‘ra, mamlakatimizda kambag‘allik darajasi 2021-yildagi 17 foizdan 2022-yilda 14,1 foizgacha pasayishi qayd etildi. Shuningdek, 2023-yil yakuniga qadar mamlakatda kambag‘allik darajasini 12 foiz, 2030-yilga qadar 7 foizga tushirish strategik maqsad sifatida belgilangan.

Vazirlik tomonidan xalqaro ekspertlar va xitoylik mutaxassislari bilan hamkorlikda 2024-2030-yillarga mo‘ljallangan kambag‘allikni qisqartirish strategiyasi ishlab chiqilmoqda.

Mazkur strategiya asosida davlat tomonidan ehtiyojmand aholini har tomonlama manzilli qo‘llab-quvvatlashning bevosita va bilvosita chora-tadbirlari davom ettiriladi.

Olib borilayotgan islohotlar natijasi yon-atrofimizda o‘z aksini topadi. Odamlar o‘ziga berilayotgan imkoniyatdan foydalanib, tadbirkorlik qilmoqda, kasb-hunarini rivojlantirmoqda.

Biz esa, so‘z isboti bilan go‘zal, degan tamoyilga amal qilib, yurtimizning turli

hududlarida yashab, mana shunday imkoniyatlardan foydalanayotgan, daromad topayotgan ayrim oilalar faoliyati bilan tanishdik.

U kim edi?

Nargiz Eshdavlatova yurtimizda tadbirkorlikni rivojlantirishda olib borilayotgan islohotlardan unumli foydalangan holda,



o‘z sohasida samarali mehnat qilab, xotin-qizlar o‘rtasida namunali faoliyat olib borayotgan ishbilarmon ayollardan.

U o‘rta maxsus ma‘lumotga ega bo‘lsa ham, uy bekasi bo‘lib qolishni istamadi.

— Ichimda bir ovoz harakat qil, qo‘lingdan keladi, deb turardi. To‘g‘ri, boshida oson bo‘lmaydi, biroq harakat qilganga bugun imkoniyatlar yetarli, — deydi N.Eshdavlatova. — Tadbirkorlik bilan shug‘ullanish haqida o‘ylab yurardim. Lekin mablag‘ hamda tajriba masalalarida imkoniyatimiz yetmas edi. Bu bo‘yicha hududiy rahbarlarimizga murojaat qilganman. Ularning qo‘llab-quvvatlovi bilan ko‘rpa-yostiqlik ishlab chiqarish sexi tashkil qildik.

Nargiz Eshdavlatova bugun 55 xotin-qiz uchun ish o‘rni yaratgan. Ulardan 25 nafari “Temir daftar”ga kiritilgan edi. Kelgusida zamonaviy kashtachilik loyihasi bo‘yicha yuzlab ishsiz, kam ta‘minlangan, oilasida nogironligi bor, boquvchisini yo‘qotganlar uchun yangi ish o‘rinlari yaratishni rejalashtirgan.

N.Eshdavlatova tadbirkorlik faoliyati bilan bir qatorda ko‘rik-tanlovlar hamda musobaqalarda ham faol qatnashadi. 2021-yili tadbirkorlar, hunarmandlar hamda fermerlar o‘rtasida “Tashabbus” ko‘rik-tanlovining tuman va viloyat bosqichida “Eng faol tadbirkor ayol” nominatsiyasi bo‘yicha 1-o‘rinni qo‘lga kiritgan.

Shu yili “Eng namunali ayol ish beruvchi” respublika tanlovining tuman va viloyat bosqichida ham 1-o‘ringa munosib ko‘rildi. Oradan ko‘p o‘tmay Xotin-qizlar tadbirkorlik markazi tomonidan o‘tkazilgan “Xotin-qizlarning eng yaxshi startap loyihasi” tanlovining tuman, viloyat bosqichlarida “Ishlab chiqarish bo‘yicha eng yaxshi startap loyiha” nominatsiyasida 1-o‘rinni qo‘lga kiritib, respublika bosqichida ishtirok etdi.

Uning maqsadlari katta. Aytishicha, sa‘y-harakatlari orqali o‘z mahsulot-

larini Osiyo va jahon bozorlariga olib chiqmoqchi.

Oyiga 10-15 million so‘m daromad

Fayoz Kenjaboyev Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumanida yashaydi. Uch farzandni voyaga yetkazish, o‘qitish, yaxshi kiyinirish uchun mahalladagi tadbirkorlar qo‘lida ishchi bo‘lib ishlar, daromad ba‘zida yetib, ba‘zida yetmay qolardi.

— Oilada faqatgina o‘zim ishlaganim uchun moliyaviy tomondan har doim qiynchilik bo‘lgan. Turmush o‘rtog‘im ham oliy ma‘lumotga ega emas edi, — deydi F.Kenjaboyev. — Mahallamizga birlashtirilgan hokim yordamchisi Dildoraxon Nuridinova oilaviy sharoitimizdan xabar topib, bizga yordam berishga kirishdi. U dastlab qo‘lmdan nima ish kelishini so‘radi. Poyabzal tikishni yaxshi bilganim uchun hokim yordamchisi bizga imtiyozli kredit asosida 20 million so‘mlik tikish mashinalari olib berdi hamda uyimizda erkaklar oyoq kiyimlarini tikishni boshladik. Bira-to‘la o‘zim, turmush o‘rtog‘im, o‘g‘lim va yon qo‘shnimiz ishi bo‘ldik.

Fayoz aka bugun zamonaviy erkaklar poyabzallari tikib, mahallaga hamda tuman va viloyat bozorlariga sotmoqda. Sifatli ishlagani sababli sotuvchilar orasidan ham anchagina mijozlar orttirgan.

O‘zining aytishicha, shu ishing ortidan oyiga 10-15 million so‘m atrofida daromad topadi.



F.Kenjaboyev ham kelajakda tadbirkorligini kengaytirish niyatida. U mahallasidagilar uchun ish o‘rinlari yaratib, koshibchilikni rivojlantirishni o‘z oldiga maqsad qilgan.

“O‘zimizga bo‘lgan ishonch yanada ortdi”

Rahbarniso Hasanova 12 kishilik oilaning bekasi. U olis So‘x tumanida istiqomat qiladi.

— Katta oilani boqish oson emas. Qaynona va qaynatam nafaqada. Turmush o‘rtog‘im ishsizligi uchun Rossiyaga borib ishlab kelar edi. Biroq har doim ham turmushimiz to‘kis bo‘lmagan, — deydi R.Hasanova. — Qaynatamning maslahati bilan issiqxona tashkil qilmoqchi bo‘ldik. Lekin masalaning bir tomoni yana mablag‘ga borib taqaladi.

Balki biror yordami hokim yordamchisi Farruxjon Shodiyevga murojaat qildim. U kishi uzoq cho‘zmay, ortiqcha ovoragarchiliklarsiz bizga issiqxona qurish uchun 30 million so‘m imtiyozli kredit olishga yordam berdi. Natijada, o‘z xonadonimizda “Orzuvi Rohatoy” oilaviy korxonasini tashkil etdik. Bugun issiqxonada oilamiz bilan mehnat qilmoqdamiz.

R.Hasanovanning aytishicha, issiqxonadan unumli foydalanib, yaxshi mehnat qilinsa, oyiga 10 million so‘mgacha daromad topish mumkin ekan.

Ular kelajakda bu faoliyatini kengaytirib, yanada daromadli ekin turlarini yetishtirishni maqsad qilgan.

Mamlakatimizda shunday yurtdoshlarimiz kabi imtiyozlardan foydalanib, tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yayotgan, oilaviy daromad topayotgan minglab oilalar bor. Bu xalqimizning moddiy tomondan ham boyib borayotganining amaliy ifodasidir.





www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



PREZIDENT TASHRIFIDAN SO'NG

YANGI MARRALAR,
KELGUSI REJALAR BELGILANDI

Boshlanishi 1-betda

UCHRASHUV BIZGA KATTA KUCH BERDI

Aziza HAYDAROVA,
Qarshi shahridagi "Sulton Tex
Group" klaster to'qimachilik korxo-
nasi sifat nazoratchisi:

— Korxonada to'rt yildan beri ishlay-
man. Ilgari ishsiz uyda o'tirganman. Rosti,
xotin-qizlarni ish bilan ta'minlashga e'tibor
qaratilmas edi. Biror korxona yoki tashkilot-
ga ish so'rab borsangiz, albatta, rad javo-
bini berardi. Bo'sh o'rin bo'lsa-da, negadir
xohlashmasdi. Ishlab chiqarish majmualari
ham sanoqli edi.

O'zim Qarshi tumanidagi Fayzobod
mahallasida yashayman. Turmush o'r-
tog'im o'qituvchi. Yoshligimda tikuvchilikni
o'rganganman. Korxonada ish borligini
eshitib, rahbariyat bilan uchrashganimdan
so'ng muammosiz qabul qilishdi. O'tgan yili
yangi ochilgan tikuv sexiga ishga o'tdim.
Uch million so'mga yaqin maosh olaman.
Turmushim ham ancha yaxshilandi.

Kuni kecha Prezidentimiz korxonamiz-
ga tashrif buyurib, ishimiz bilan tanishdi.
Men bilan ham suhbatlashib, bu yerdagi
shart-sharoitlar, ishchilar uchun yaratilgan
imkoniyatlar bilan qiziqdi. Qimmatli mas-
lahatlar bilan bizga katta kuch bag'ishladi.

Avvalroq Prezidentimiz korxonamizga
kelishi mumkinligini eshitganimizda faqat
rahbarlarimiz bilan muloqot qiladi, deb
o'ylagandik. Lekin biz, oddiy ishchilar bilan
samimiy suhbat ko'nglimizni tog'dek ko'tar-



di. Kelgusida oliy ta'lim olish, sohada yetak-
chi kadrlardan biri bo'lishni maqsad qildim.
Buning uchun bugundan itilishni boshlay-
man. Nasib etsa, kelgusida o'zim ham katta
korxona ochib, mamlakatimiz sanoati rivoji-
ga hissa qo'shaman.



66

DAVLATIMIZ RAHBARI SHU KUNI TA'LIM DARGOHIMIZDA
BO'LIB, BIRINCHI NAVBATDA, AHVOLIMIZNI SO'RADI.
MAKTAB FAOLIYATI, BOLALARNING TA'LIM OLISHI BILAN
QIZIQDI. SINFLARGA KIRIB, O'QUVCHI VA O'QITUVCHILAR
BILAN GAPLASHDI.

O'QITUVCHINING QADRI VA
QADDI TIKLANDI

Muhabbat CHORIYEVA,
Qarshi tumanidagi 12-maktab
direktori:

— Davlatimiz rahbari maktabimizga kirib
kelganida menda o'zgacha quvonch pay-
do bo'ldi. Buning asosiy sababi, bir oz oldin
hamkasbim bilan bundan besh-olti yil avvalgi
davmi eslab turgandik.

Avvallari ayni shu kunlarda o'qituvchini
paxta dalasidan topardingiz. Maktabdagi
ish, o'quvchilarga ta'lim berish — barcha-
si bir chetga surilardi. Hamma yoppasiga
dalaga otlanardi. Maktab rahbarlari etalab
yig'ilishda paxta terimi, kechga kunlik reja
bajarilishi to'g'risida hisobot berardi. Kuz-
gi mavsum yaqinlashavergach, yuragimiz
orqaga tortib ketardi. Qachon bu paxta te-
rimi tugarkin, deya o'ylandik. Mana, o'qituv-
chi dalaga chiqmasa ham paxta terilarkan.
Muallim o'z ishidan boshqa narsaga jalb
etilmaydigan bo'ldi. Bir so'z bilan aytganda,
qaddi ham, qadri ham tiklandi.

Davlatimiz rahbari shu kuni ta'lim dar-
gohimizda bo'lib, birinchi navbatda, ahvo-
limizni so'radi. Maktab faoliyati, bolalarning
ta'lim olishi bilan qiziqdi. Sinflarga kirib,
o'quvchi va o'qituvchilar bilan gaplashdi.

Maktabimiz 1968-yilda qurilgan. Hozir
1272 o'g'il-qiz ikki navbatda ta'lim oladi.
O'tgan yili 6 milliard 700 million so'mga
to'liq mukammal ta'mirdan chiqarildi. O'quv
va laboratoriya xonalari yangi jihozlar bilan
ta'minlangan. Xonalar yorug' va shinam.



Ayni paytda 49 ta sinfxona bo'lsa-da,
qo'shimcha o'quv xonalarimiz yetishmay-
di. Shu bois, davlatimiz rahbari darsni bir
navbatda o'qitish imkoniyatini ko'rib chi-
qish taklifini berdi. Shu bilan birga, maktab
hovlisidagi bo'sh turgan joylardan unumli
foydalanish borasida ko'rsatma berdi. Shu
kunning o'zidayoq bu vazifalarni bajarish
rejalarni ishlab chiqdik. Albatta, kelgusida
ta'lim maskanimizni nafaqat tumanda, balki
viloyatda yetakchi bilim dargohlari qatoriga
olib chiqishga bel bog'ladik.



KO'P YILLIK ORZULARIMIZ USHALDI

Salima OCHILOVA,
Qarshi shahar tug'uruq kompleksi
bosh shifokori:

— "Ona va bola" markazi ish boshlashi
juda quvonarli. Tez orada kompleksimiz
ham shu joyga ko'chib o'tadi.

Qarshi shahri tug'uruq kompleksi qu-
rilganiga ancha yillar bo'lgan. Jihozlari
ancho eskirgan. Sharoitni imkon darajada
yaxshilashga intilib kelardik. Endi "Ona va
bola" markazida bu yerdagidan yuz foiz
boshqacha sharoit mavjud. Odamlarning
og'iri yengil, uzog'i yaqin bo'ladi. Bemor
ona yoki bola shaharning turli burchakla-
riga sarson bo'lmaydi. Shu joyning o'zida
barchasiga yechim topiladi.

Markazda homiladorlar, jumladan, og'ir
patologiyali tug'uvchi va tuqqan ayollar-
ga hamda patologik va chala tug'ilgan
chaqaloqlarga zamonaviy va yuqori tex-
nologik yordamlar ko'rsatiladi. Natijada
onalar va bolalar o'limi keskin kamayadi.
Bolalar o'rtasidagi nogironlik 20 foizga
pasayadi.

Homilador ayollar, yangi tug'ilgan cha-
qaloqlar va 18 yoshgacha bo'lganlarga
tasdiqlangan standartlarga muvofiq yuqori
malakali ixtisoslashgan statsionar yordam
ko'rsatiladi. Markaz to'liq quvvatda ish
boshlagach, bir yarim ming tibbiyot xodimi
faoliyat yuritadi. Yiliga 3000 dan ortiq noyob
yuqori texnologik operatsiya qilinadi.

Akusher-ginekologik, anesteziolog-
reanimatologik, kardiologiya va neonatal
brigadalar tashkil etilib, yuqori malakali,
zamonaviy va multidissiplinar tibbiy yordam
ko'rsatiladi.

Qarshi davlat universitetida tibbiyot
fakulteti talabalari uchun shu joyda tibbiy
kafedralar ochiladi. Ya'ni markaz talabalar
amaliyot o'tashi uchun klinik baza vazifasini



o'taydi. Tibbiyot xodimlarini tayyorlash, qay-
ta tayyorlash va malakasini oshirish, ilmiy
izlanishlar qilish, yuqori malakali kadrlar ye-
tishtirishga sharoit yaratiladi.

Shuningdek, markaz tuman, shahar
tibbiyot birlashmalari mutaxassislarga
konsultativ va tashkiliy-uslubiy yordam
ko'rsatishda ham muhim vazifani baja-
radi.

Prezidentimiz markazda yaratilgan
shart-sharoitlarni ko'zdan kechirib, soha
mutaxassislari bilan muloqot qildi. Xorijiy
davlatlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish,
shifokorlar tajribasini oshirib borish, pro-
filaktika va davolashning ilg'or uslublarini
amalga oshirish to'g'risida ko'rsatmalar
berdi.

Albatta, har sohada yetarli imkoniyat
bo'lsa, ishda sifat bo'ladi. Bu yerdagi qulay-
liklar ko'p yillik orzumiz edi. Yangi markaz-
ning ish boshlashi viloyat ahlining katta yu-
tuqlaridan biri bo'ldi.

Sanjar AZIMOV,
Qarshi shahridagi "Oydin" mahalla
fuqarolar yig'iniidagi hokim
yordamchisi:



"OYDIN"DA ISHSIZLAR BO'LMAYDI

— Mahallamizda 11 mingga yaqin aholi asosan
ko'p qavatli uylarda yashaydi. Shu yilning o'zida
uchta ko'p qavatli uy foydalanishga qo'yilindi. Bitta
umumta'lim maktabi, uchta maktabgacha ta'lim
tashkiloti bor.

Keyingi paytda mahallamizda xizmat ko'rsatish,
tikuvchilik va hunarmandlik yaxshi yo'lga qo'yildi.
Jumladan, savdo do'konlari, sartareshxona, umumiy
ovqatlanish shoxobchasi kabi tadbirkorlik subyektlari
tashkil etilishi natijasida aholi bandligi ta'minlangan.

Shu yilning o'zida ikki yuzdan ortiq ishsiz fuqaroni
turli sanoat korxonalari ishga joylashtirdik.
Mahallamizda Qarshi shahar "Ishga marhamat"
monomarkazi joylashgan. Bevosita hamkorlikda
ishsizlarni u yerda o'qitib, kasbga ega bo'lishiga
imkon yaratilmoqda. Hozirga qadar 191 fuqaromiz
o'zining bandligini ta'minlab, daromad topmoqda.

Prezidentimiz mahallamizga tashrif buyurib,
eng avvalo, aholi bandligini ta'minlash borasidagi

amaliy ishlar bilan tanishdi. "Mahalla yetilligi" tashkil
etilmoqda. Kelgusi yildan "mahalla byudjeti" tizimi
to'liq joriy etiladi. Ya'ni har bir mahallaning 100
million so'mgacha mablag'i bo'ladi. Shu bilan birga,
uchta platforma — "Onlayn mahalla", "Xotin-qizlar",
"Yoshlar portal" o'zaro integratsiya qilinib, yagona
tizimda mujassamlashtiriladi.

Davlatimiz rahbari bu tizimni samarali ishlatish,
imkoniyatlardan unumli foydalanib, mavjud
muammolarni bartaraf etish lozimligini ta'kidladi.
Ayniqsa, aholi bandligini ta'minlash, avvalo, ularni
kasb-hunarga o'qitib, keyin kerakli imkoniyatlarni
yaratish, kredit va subsidiyalarni ajratish xususida fikr
bildirdi. Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlashga alohida
e'tibor qaratish borasida ko'rsatmalar berildi. Bu
topshiriqlarni bajarib, kelgusida mahallamizni
yanada obod va farovon go'shaga aylantirib,
ishsizlikni to'liq bartaraf etamiz. Buning uchun bizda
barcha imkoniyatlar bor.

Diilshod NABIYEV,
tadbirkor:

SAMIMIY MULOQOTDA OTALARCHA
G'AMXO'RLIKNI HIS QILDIK

— Turmush o'rtog'im o'qituvchi. Ikki farzandimiz bor. Ko'p qavatli
uyda yashaymiz. Bir oz oldin mahallamizga Prezidentimiz kelishini
eshitgandik. Uymizda mehmon bo'lishini faqat orzu qilgandik, xolos.
Yaxshi niyat qilgan ekanmiz, amalga oshdi.

Rosti, kutganimizdan ham ajoyib, samimiy suhbat bo'ldi. Boshida
bir oz hayajonlanish bor edi. Lekin biz bilan otalarcha muloqoti sabab
barchasi oddiy kechdi. Eng avvalo, turmushimiz, ish faoliyatimiz, hol-
ahvolimizni so'ragani ko'nglimizni yanada yaqinlashtirdi. Farzandlarim
ham bobosini ko'rgandek erkanlab, yaqin olishdi.

Dasturxon atrofida yoshlarga yaratilayotgan qulayliklar, bundan
oqilona foydalanib erishayotgan natijalarimiz haqida gapirib berdik.

O'zim kichik biznes sohibiman. Endi yangi loyihalar ustida ishlab,
yurtimiz iqtisodiyoti rivojiga hissa qo'shishga yetarli motivatsiya oldim.
Bizga bildirgan ishonchni oqlash uchun bor kuchimni sarflayman.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri
Akbar RAHMONOV yozib oldi.



MUNOSABAT

Mamlakatimizning
har bir hududi qishloq
xo'jaligi sohasida katta
imkoniyatlarga ega.
Masalan, Qashqadaryo
viloyati yurtimiz bo'yicha
eng ko'p don va paxta
yetkazib beradi. Mahalliy
bozorlarimizni go'sht
mahsulotlari bilan
ta'minlashda ham katta
quvvatga ega. Viloyatda
1,4 million gektar yaylov
bor, bu 7 million bosh
qoramol va qo'y-echki
uchun tabiiy oziqa bazasi,
degani.

Ibrohim ERGASHEV,
O'simliklar karantini va
himoyasi agentligi direktori

Ammo boshqa hududlarda bo'lgani kabi
bu yerda ham iqlim o'zgarishlari ta'sirida yer
degradatsiyaga uchrarmoqda. yaylovlarning
25 foizida mayso yo'q. Tuproq holati o'zga-
rib, unumdorligi pasayishi qishloq xo'jaligi
mahsulotlari yetishtirishga salbiy ta'sir ko'r-
satyapti. Bu hozirgi kunda dunyo davlatlari
uchun ham oziq-ovqat xavfsizligini ta'min-
lash bilan bog'liq dolzarb masala bo'lib, ular
oldiga jiddiy vazifalarni qo'yarmoqda.

Davlatimiz rahbari raisligida joriy yil
25-oktabr kuni Qarshi shahrida Qashqa-
daryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlan-
tirish chora-tadbirlari bo'yicha o'tkazilgan
yig'ilishda belgilangan ustuvor vazifalar
qatorida tuproq agrokimyoviy tahliliga oid



takliflar ilgari surildi. Xususan, Preziden-
timiz viloyatda 10 ta mobil laboratoriya
tashkil etilishi bo'yicha topshiriq berdi.
Agrokimyoviy tahlillar ayni shu laboratoriya-
larda o'tkaziladi.

Mobil laboratoriyalar ekin dalalarida
tahlillarni tezkor o'tkazish uchun qulay.
Ya'ni daladan namuna olinadi va o'sha
joyning o'zida tekshirilib, yer egasiga tahlil
natijalari taqdim qilinadi. Viloyat hududi
kattaligini inobatga oladigan bo'lsak,
qo'shimcha mobil laboratoriyalarga ehtiyoj
bor edi. Bu hozirgacha amalga oshirilgan

ishlar ko'lamini yanada kengaytiradi. Ma-
salan, 2020-2021-yillarda viloyat bo'yicha
34 ming gektardan tuproq namunalari
olinib, agrokimyoviy tahlil o'tkazilgan.
2022-2023-yillarda esa 220 ming gektarda
shunday tahlil o'tkazish bo'yicha shartno-
malar tuzilib, hozirgacha 160 ming gektar
hududning agrokimyoviy xaritasi tayyorlan-
gan. Xususan, ko'rinadiki, hududda sohani
rivojlantirish, tuproqning holatiga e'tibor
bergan holda tezkor va sifatli tahlillarni o't-
kazishga talab oshib boryapti. Ishga ilmiy
yondashayotgan fermer va dehqon xo'ja-
liklari safi kengaymoqda, ularning tuproqqa
bo'lgan munosabati ham o'zgargan.

Chunki qishloq xo'jaligi sohasida nati-
jadorlikning katta qismi tuproq sifatiga
bog'liq. U yer po'stining yuza va unumdor
qatlami bo'lib, shu yuzada inson uchun
zarur oziq-ovqat mahsulotining 95 foizga
yaqini yetishtiriladi. Sifatli tuproq bilan
esa mo'l hosil olish, yuqori daromadga ega
bo'lish imkonisiz. Aksiga olib, dunyo bo'y-
icha tuproq sifati tobora yo'qolib, unumdor-
ligi kamayib bormoqda. BMT tahlillariga
ko'ra, bugun sayyoramizdagi yer resursla-
rining 40 foizga yaqini tanazzulga uchra-
gan. Jahonda oziq-ovqat xavfsizligi kun tar-
tibidan tushmay qolgan hozirgi davrda bu
o'ta jiddiy muammodir.

Yurtimizda qishloq xo'jaligi yerlari ho-
latini yaxshilash, tuproqning xossa va

xususiyatlarini maqbullashtirish, tuproq
unumdorligini chegaralovchi omillarni
aniqlash, xususan, tuproq resurslaridan
oqilona va samarali foydalanish, sohani
raqamlashtirishga davlat siyosati dara-
jasida e'tibor qaratilayotgani boisi shun-
da. Xususan, kelgusida qishloq xo'jaligini
ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali
dehqon va fermerlar daromadini kamida
2 barobar oshirish, qishloq xo'jaligining



yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish
maqsad qilingan. Mazkur maqsadga
erishish uchun tuproq unumdorligini oshi-
rish va muhofaza qilish asosiy ustuvor
yo'nalishlar qatoriga kiritilgan.

Bunda esa hududlarimizda tashkil etil-
ayotgan mobil laboratoriyalar alohida o'rin
tutadi. Ular fermer xo'jaliklari, agroklastlar
va tomorqa yer egalari tezkor xizmatlar
ko'rsatib kelmoqda. Mobil laboratoriya yer
maydonining o'zida agrokimyoviy tadqiqot
ishlarini bajaradi. Ular orqali olingan ma'lumotlar
esa yerdan samarali foydalanishni ta'minlash,
tuproq holatini tahlil qilish, agrokimyoviy
kartogramma tuzishda ham qo'l kelyapti.

Bundan tashqari, tuproq agrokimyoviy
tahlillarini o'tkazish soha rivojida qator
afzaliliklarga ega. Birinchidan, tuproq tahlili
qaysi moddalarga zarurat borligini yaqqol

ko'rsatib beradi. Ikkinchidan, tahlil natijalari
asosida ekin maydoniga ortiqcha mineral
o'g'it solinmaydi. Tadbirkor zarur bo'ladigan
100 tonna o'rniaga bilib-bilmay yerga 400
tonna o'g'it bermaydi. Chunki zamonaviy
qurilmalar zarur bo'ladigan o'g'itlar me'yori,
talab etiladigan vaqti va boshqa barcha
ma'lumotlarni aniqlab beradi.

Mobil laboratoriya orqali olinadi-
gan tahlillar orqali hududlarning tuproq
agrokimyoviy xaritalari yaratiladi. Shun-
day xaritalar asosida tuproq resurslarini
kompleks monitoring qilish va boshqarish
tizimining axboriy ta'minoti, tuproq degra-
datsiyasini baholash uchun zarur indika-
torlar tizimi ishlab chiqilmoqda. Bu degani,
yer tarkibi buzilishi va shor'lanishi-
ning oldi olinadi, tuproqda nitrat qoldiqlari
me'yordan ortmaydi, hosildorlik yuqori
bo'ladi. Asosiy, aholi salomatligi, atrof-
muhit muhofazasi saqlanadi.

Qishloq xo'jaligida zamonaviy texnologiya-
larga asoslangan ana shunday ilmiy tad-
qiqotlarga talab kun sayin ortib bormoqda.
Bu barcha sohalaridagi rivojlanish tendensi-
yalari bilan bog'liq. Chunki har bir tadqiqot
muayyan muammo yechimiga xizmat qilib,
yangi loyihalarga yo'l ochib boraveradi.

Qashqadaryo viloyatida amalga oshi-
rilayotgan ishlar, belgilangan vazifalar
ham shular jumlasidan. Xususan, viloyat
Agrokimyoviy tahlil markazi O'simliklar
karantini va himoyasi agentligi tizimiga o't-
ganidan keyin 26 turdagi zamonaviy usku-
na olib kelinib, bilim va salohiyatli yosh
kadrlar ishga olindi. Foydalanuvchilarga qu-
laylik yaratish maqsadida "O'ZAGROLAB"
elektron platformasi ishga tushirildi. Maz-
kur dastur orqali yer egalari tuproqning
tabiiy unumdorligi haqida har bir hudud
kesimida ma'lumotlarni ochiq tarzda olishi
mumkin.

OLIIY TA'LIM

BUGUN TALABANI AUDITORIYADA SHUNCHAKI USHLAB O'TIROLMAYSIZ...

Uni mutaxassislikka qiziqtirish uchun boshqacha yo'l tutish kerak



Abdug'ani ELMURODOV,
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti prorektori, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Malakali, bilimli, qolaversa, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning har bir bosqichida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, yuqori darajaga ko'tarish borasida muayyan vazifalarni bajarish zarur. Buning uchun bugun barcha OTMda ta'lim sifatini oshirishning uch asosiy omiliga e'tibor qaratilmoqda. Bular — moddiy-texnik baza, yuqori ilmiy salohiyat va pedagogik mahoratga ega jamoa hamda raqamli texnologiyalar asosida amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim. Bunda xalqaro tajriba, ishlab chiqarishdagi yangiliklar va axborot texnologiyalari uyg'unlashgan holda o'qitiladi. Misol uchun, qishloq xo'jaligi, veterinariya va chorvachilik bo'yicha auditoriyada dars o'tadigan professorning navbatdagi sabog'i ishlab chiqarishda bo'lishi kerak. Shunda talabani mutaxassislikka qiziqтира oladi.

Prezidentimizning 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga binoan, universitetlar zamonaviy qiyofa kasb etishi bilan birga, so'nggi rusumdagi o'quv va ilmiy laboratoriyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va multimediali uskunalar bilan jihozlangan o'quv xonalarini, axborot-resurs markazlari, yagona axborot almashinuv platformalariga ega bo'ldi. Jumladan, keyingi paytda Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida ham muayyan sifat o'zgarishlari kuzatildi. Tegishli me'yoriy huquqiy hujjatlarga muvofiq, universitet moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun 720 o'rinli o'quv-laboratoriya binosi, 10 ta zamonaviy o'quv laboratoriyasi, shuningdek, xalqaro loyihalar doirasida veterinariyada biologik xavfning oldini olish, sutni qayta ishlash, oziq-ovqat xavfsizligi laboratoriyalari jihozlandi. O'quv jarayoni uchun viariv, o'quv-tajriba xo'jaligi, tizimdagi ilmiy-tadqiqot institutlari, hamkor kor-

xonalar ham ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Ishlab chiqarish va o'qitishdagi xalqaro hamkorlik, professor-o'qituvchilar hamda talabalar mobilligi talabi asosida o'quv dasturlarini takomillashtirish zarurati tug'ildi. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining tegishli buyrug'i bilan OTMlarda sohalar bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengashlar tashkil etildi. Bu kengashning avvalgilaridan farqi shundaki, universitetning har bir sohaga mas'ul yetakchi professor-o'qituvchilari tanlab olingan holda, ishchi guruhi tuzildi. Shuningdek, har bir ta'lim yo'nalishi, magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, fan dasturlari, o'quv rejalarini ishlab chiqish bo'yicha alohida mas'ul kengashlar ochildi. Shu kunga qadar vazirlik huzuridagi OTM o'quv-uslubiy faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashga taqdim etib kelingan masalalar endi dastlabki ekspertizadan o'tkazish uchun ushbu kichik muvofiqlashtiruvchi sho'balarda ko'rib chiqiladi.

Ushbu yo'nalishda Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida veterinariya sohasi bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash faoliyati yo'lga qo'yildi. Unga yo'nalishlar uchun mutaxassislar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari, 10 dan ortiq yirik, barqaror faoliyat ko'rsatayotgan korxona-tashkilot va ilmiy-tadqiqot institutlari vakillari kengash a'zoliciga kiritildi. Kengash ishida veterinariya ta'limining bakalavriat yo'nalishi va magistratura ixtisosligi

lanish, talabalarni mustaqil ishlashga undash, kasbiy yo'naltirib borish kabi vazifalar muhokama qilinaypti.

Bu jarayon ta'lim sifatini oshirishga qo'yilgan dastlabki muhim qadamdir. Dasturning mukammal bo'lishi auditoriyada dars sifatining poydevorini belgilaydi. Chunki bugun kadrlar tayyorlashga qo'yilgan talab o'zgacha. Mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarga talab kuchaygan. Shu bois, xalqaro mehnat bozori talablari asosida ishlab chiqilgan o'quv dasturlarini takomillashtirishga harakat qilindi. Aynan veterinariya ta'lim yo'nalishlari uchun rivojlangan 30 davlatning o'quv rejalarini o'rganib chiqildi. Xorijiy davlatlarda veterinariya ixtisosliklari bo'yicha kadrlar tayyorlash uchun 5, 6 va hatto 7 yil talab etiladi. Xalqaro epizootik byuro (XEB) talablariga mu-



vofiq, O'zbekistonda veterinariya ta'lim yo'nalishi o'quv dasturlarini o'zlashtirish muddati 5 yildan kam bo'lmasligi belgilangan. Bu me'yor 2022/2023-o'quv yilidan universitetda, 2023/2024-o'quv yilidan mamlakatimizdagi veterinariya mutaxassislari tayyorlaydigan boshqa OTMlarga ham joriy qilindi.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti o'quv rejalarini AQSHning Minnesota universiteti veterinariya meditsinasi ta'lim yo'nalishi o'quv rejalarini asosida takomillashtirilib, o'zimizga moslandi hamda 2023/2024 o'quv yilida joriy qilindi. Unda asosiy 26 ta fan qoldirildi (ilgari 40-45 ta fan o'qitilgan), ish beruvchi korxona va tashkilotlarning taklifi asosida yangi tanlov fanlari ham kiritildi.

Bugun ishlab chiqarishda mulkka egalik shakli o'zgargan. Xususiy sektorda katta kontingent, ish o'rinlari mavjud. Ishlab chiqarishga chiqqan mutaxassisdan bozor nimani talab qilyapti — biz ana shuni o'quv dasturiga kiritishga intildik. Endi o'qitish tizimi sifatini belgilashi uchun nazariyaga emas, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim bo'ladi. Talabalarimiz 2-kursdan boshlab kelgusida faoliyat ko'rsatishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish korxonalarida amaliyot o'taydi. Har bir talabamiz uchun barqaror faoliyat ko'rsatayotgan yirik chorvachilik klassterlarida ish haqi beriladigan amaliyotni ko'proq tashkil etishga harakat qildik.

Respublika veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi, viloyat-

lar boshqarmalari, tuman bo'limlari, hayvonlarga tashxis qo'yish va oziq-ovqat xavfsizligi laboratoriyalari, xususiy korxona va tashkilotlar, klasterlar va boshqa manfaatdor idoralar bilan hamkorlikda universitetda har yili bitiruvchi kurslar uchun "Karyera kunlari" tashkil qilinadi.

2022/2023-o'quv yili 725 bitiruvchidan 643 nafari ishga joylashgan, 34 nafari magistraturada o'qishni davom ettirgan. Talabalarning ba'zilari Samarqand viloyatidagi chorvachilikka ixtisoslashgan "Siyob — Shavkat — Orzu" MCHJ-da dastlab kichik mutaxassis sifatida ishlab, (transport xarajati, issiq ovqatdan tashqari) oyiga 1,5 million so'mgacha maosh olgan. Endi ularning maoshi 9 million so'm. Shuningdek, "In vitro" biotexnologiya laboratoriyasida 20 nafar talabamiz ishlaypti. "Maroqand meva" MCHJ, "Agromir" qo'shma korxonalarida ham talabalar faoliyat yuritmoqda.

Bugun auditoriyada dars berish metodikasini o'zgartirishimiz kerak. Talaba axborot makonida yashaydi. Unga o'zgacha pedagogik texnologiya bilan

yondashish talab qilinadi. 80 daqiqalik dars jarayonida professor-o'qituvchi emas, talaba asosiy o'ranga chiqadi. Auditoriyada beriladigan darsning asosiy qismi talabaning mustaqil izlanishi asosida o'zlashtiriladi. Universitetda pedagogik texnologiyalar bilan axborot texnologiyalari uyg'unlashtirilgan holda dars o'tish metodikasi joriy qilindi. Bunda professor-o'qituvchi faqat ma'ruza bilan cheklanmay, multimedia vositalaridan foydalanadi. Ishlab chiqarish jarayoniga doir muammolarni yoritadi. Sohaga doir eng so'nggi yangilik va xabarlarni qayerdan qidirib topish kerakligini ham tushuntiradi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida ta'lim sifatini oshirish uchun ilmiy salohiyatni 70 foizga yetkazish belgilangan. Bir necha yil oldin universitetimizda ilmiy darajaga ega professor-o'qituvchilar salmog'i 28-32 foiz edi. Bugunga kelib, kafedralarimizda ilmiy salohiyat 55-65 foizga ko'tarildi. Ularning o'rtaacha yoshi ham yosharib bormoqda. Bu borada veterinariya va chorvachilik sohasi uchun ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash inkubatori megaloyihasi faoliyat yuritmoqda.

Oliy ta'lim sifatini oshirish hamda "fan — ta'lim — ishlab chiqarish" tizimida xorijiy tajriba asosida integratsiyani yo'lga qo'yish, ushbu jarayonga chet eldagi hamkor OTMlar professor-o'qituvchilari, ishlab chiqarish kompaniyalari vakillarini jalb qilgan holda yanada jadallashtirish davr talabi. Mamlakatimizda zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, fan-texnikaning ilg'or yutuqlarini egallagan intellektual kadrlarni tayyorlashda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va Oliy ta'lim sohasini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi asosida tashkil etilgan uzg'irsiz ta'lim tizimi muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatni barqaror rivojlantirishda kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablariga moslashtirish, oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, intellektual qobiliyatini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish, sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish kabi yo'nalishlar oliy ta'limni rivojlantirishning strategik vazifalidir.

Mazkur maqsadlarga erishishda o'qitish sifatini oshirish, ta'lim jarayonini xalqaro talablarga moslashtirish va oliy ta'lim muassasalari brendini shakllantirish tizimdagi raqobatbardoshlikni oshirishning muhim shartlaridan.



TARBIYANING yetti usuli

YUZ MARTA ESHITGANDAN BIR MARTA KO'RGAN YAXSHI(MI)?

Abdurauf Fitratning shunday fikri bor: "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq".



Xolboy IBRAIMOV,
O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti direktori, pedagogika fanlari doktori, professor

Prezidentimiz bu pedagogik fikrni oltiniga teng, deb baholadi. Shu asosda millatni eltuvchi kelajakka ikki yo'lni ko'rsatib berdi: birinchi yo'l — baxt, ikkinchi — baxtsizlik yo'li. Gap 20-30 yildan so'ng hayot maydoniga kirib keladigan bolalarimiz, xalqimizning shuncha muddatdan keyingi ahvoli haqida ketmoqda. Ota-onalar jigarbandlarini tarbiyalash bilan davlat oldidagi strategik vazifalarini bajaradi. Natijada tarbiyalangan avlod harakat qilib, aniq maqsadiga yetadi.

Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish yoshlar tarbiyasiga bog'liqligi alohida ta'kidlanayotgani bejiz emas. Farzandlarimiz ta'lim-tarbiyasi milliy yuksalishimizning kuch-qudratiga aylanishi uchun, avvalo, oila tarbiyasi birinchi va eng muhim vazifani bajarishi kerak.

Har ishini ustasiga topshirish kerakligi xalqimizning "Chumchuq so'ysa ham qas-sob so'ysin" maqolida aks etgan. Bu hikmat Yevropa, rivojlangan davlatlar fuqarolari a'moliga aylanib bo'ldi. Bundan 20-30 yil ilgari o'zimiz qilgan ishlarni (tomorqani ko'kalamzorlashtirish, pardo-andoz, avtomashina yuvish, moyini almashtirish, kuzda banka yopish kabilar) ustasi farangiga qildiryapmiz yoki ular maslahatini olib, bajorapmiz.

Mashina haydash uchun ichiga kirish kerak. Xuddi, shuningdek, pedagogikani o'rgatish uchun uning mazmun-mohiyatiga kirish, professional pedagog-tarbiyachilar o'g'itiga amal qilish zarur. Qarang, o'smir o'g'lingiz yoxud qizingiz qanday xushmuomala: choyini damlab, quyib, uzatib turibdi. Sizga mehribon, qat'iyatli, dadil, tadbirli, baddastir. Qanday yaxshi, qanday maroqli! Demak, ular shu fazilatlarini bilib, tanlab, o'rgatib-siz. Hafsala bilan qarab, kutib-siz. Bugun ana shu fazilatlar bolangizga qo'shilib, kamolga yetibdi. Bular barakali, shirin hosil beradi. Avlodlaringizni sarbaland qiladi, qalbiga quvonch ulashadi. Chunki siz o'stirgan xislatlar o'g'il-qizingizga, ulardan farzandlariga o'tadi.

Bu quvonchli manzarani hech kim biz uchun hosil qilmaydi. U — ma'naviyat, ma'rifiy mehnat, tarbiya, ya'ni o'rgatishning samarasi. "Tarbiya" deganda ayrim ota-onalar "bola bilan gaplashib yo adabini berib qo'yish"ni tushunadi. Aslida, tarbiyaning asosiy, xalq sinagan metodlari milliy tarbiyamiz va maqollarimizda aytilgan. Xalqimizning "Qush inida ko'rganini qiladi", "Yuz marta eshitgandan bir marta ko'rgan yaxshi" degan hikmatlari bor. E'tibor bering, asosiy urg'u so'zga emas, ko'zga qaratilyapti. Bu bejiz emas. Chunki o'zingiz ko'rmagan harakatlarni qilib ko'rsata olmay-siz. Bola ham shunday: ko'rmagan ishini bajarmaydi. Demak, farzand tarbiyasida bobolarimiz o'g'itiga amal qilish, yaxshi xulq-odob haqida yuz marta gapirgandan bir marta ko'rsatgan afzal.

Tirnoq olish, salomlashish, qovun so'yish, hurmat ko'rsatish, internetdan foydalanish, to'y-marakada xizmat qilish ham, odam savdosi, ekstremistu terroristning aldoqlaridan o'zini himoya qilishni ham bolaga yuz marta aytgandan ko'ra, bir marta "Mana bunday qilgin, xo'pmi?" deb bajarib o'rgatish kerak. Bir marta ko'rsatishdan eringan ota-ona yuz marta aytadi. Har kuni aytib, charchaydi. O'zining ham, bolasining ham kayfiyatini buzadi. Baribir uddasidan chiqmaydi... Nega?

Chunki bola qaysi xatti-harakatlarni ko'p ko'rgan va takrorlagan bo'lsa, ana shular xulqida muhrilanadi. Chuqur iz qoldiradi. Uning qilmishida yuzaga chiqadi. Misol uchun, bola ulg'aygunga qadar har kuni otasining yurish-turishi, uydagilarga muomalasi, choy ichishi, telefonda gaplashishi, gavdasini tutib yurishi, kulishi, asabiylas-hishi, ota-onasiga mehribonlik (yoki aksincha, qo'pollik) qilayotganini ko'radi. Ota-ona bolalari kuzatayotganini sezmaydi ham. Shunday ekan, ota-onalarga bir tavsiyamiz bor: bolangiz sizning yoshingizga yetganda qanday odam bo'lishini istasangiz, o'zingiz hozir shunday bo'ling!

Prezidentimiz Farg'ona viloyatida aholi bilan uchrashuvlardan birida: "Yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak. Bu borada uyushmagan yoshlar bilan ishlashga ko'proq e'tibor qaratish zarur. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analimizga, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosiga tayanamiz", dedi. E'tibor bering, gap ajdodlarimizning boy tarbiyaviy merosi haqida ketyapti. Bunda juda katta hikmat bor.

Keling, o'zimizdan "Ota-ona tarbiyasini olgan bola yaxshimi yoki bobo-buvi tarbiyasini olgan?" deb so'raylik. Beixtiyor ikkinchisi to'g'ri, deymiz. Ko'pni ko'rgan opa-singillarimiz "Buvi tarbiyasini olgan qiz yaxshi bo'ladi", deydi. Nega? Chunki bobo-buvilarimiz shoshilmay, bola yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatolarning oldini olib, tushuntirib, puxta tarbiyalagan. Oldini olib tarbiyalash pedagogik profilaktikadir. Ayrim ota-onalar ko'pincha kechikib, ya'ni bolada biror illat yuzaga chiqqandan keyin buzilgan xulqni tuzatishni talab qiladi. Bu — kechikkan tarbiya, qayta tarbiyalash. Qayta tarbiyalash juda qimmatga tushadi. U bir necha karra ko'p mehnat, vaqt va e'tibor talab qiladi.

Ko'pincha bolamizga odoblikni qanday bo'lishini tushuntirmay, ko'rsatmay, "Odobli bo'li" yoki odobsizlik nimaligini uqtirmay, "Odobsiz bo'lmal" deymiz. "Mana bunday qil, unday qilma", deb ko'rsatmaymiz, erinamiz. Vaholanki, bularning biri — rag'bat, ikkinchisi — taqib. Demak, fazilatni ham va uning ziddi bo'lgan illatni ham tasvirlab, tushuntirib berishimiz kerak. Chunki ma'nosi tushunilmagan tarbiyaviy talabni bajarish uchun bolada ishonch yetishmaydi. Mehnatsevarlik bilan dangasalikni, mehribonlik bilan bemehrlilni, bilimdonlik bilan bilimsizlikni, xushmuomalalik bilan qo'pollikni qiyoslab, fazilatlarning afzalligiga ishon-tirib tarbiyalashimiz kerak.

Buning uchun yetti tavsiya bor:



birinchisi, farzandingiz erishgan har bir kichik yutuqni maqtab, qo'llab-quvvatlang;

ikkinchisi, xato qilsa, buning sabab va oqibatlarini yotig'i bilan ayt-ing. Bola xatosini, sabab va oqibat-larini anglab olsin. So'ng xulosasini gapirib bersin;

uchinchisi, farzandingizga emas, uning yaxshi yoki yomon qilmishiga baho bering. Bola va qilmishi bir xil emas;

to'rtinchisi, farzandingizni akasi, opasi yoki qo'shningning bolasi, sinf-doshlari bilan solishtirmang, hasad-ga o'rganadi. Uning o'zini o'zi bilan solishtirib gapiring;

besinchisi, bolangizdagi yaxshi fazilatlarga tayaning;

oltinchisi, o'ziga tegishli ishlarda mustaqil qaror qabul qilishiga qo'yib bering.

yettinchisi, uning har bir ish-ni o'zi hal qilishga intilishini qo'llab-quvvatlang.



“Odamning umri nima, degan savolga javob topib berish qiyin. Inson munosabatlari shunchalar turfa, tabiati, fe'l-atvori shunchalar rang-barang va murakkabki, hatto eng mukammal, zamonaviy kompyuter tizimlari ham eng oddiy inson tabiatining umumiy chizig'ini ajratib berolmaydi”.

Bu iqtibos Chingiz Aytmatovning “Qiyomat” romanidan olingan. Bir-biriga bog'lanmagan bir necha voqeadan tashkil topgan asarda bir juft bo'ri — Akbara va Toshchaynar janjir vazifasini bajaradi. Anglaganin-gizdek, roman voqealari bo'rlarning achchiq taqdiri ustiga qurilgan. Qiziq jihati, yozuvchi asarni hikoya qilarkan, bir syujetdan, bir zamon va makondan boshqasiga o'tadi. Bu tasvirlar shunchalik mohirona ifodalan-ganki, ko'chishlar o'quvchida hech qanday o'ng'aysizlik tug'dirmaydi.

Bugun biz hikoya qilmoqchi bo'lgani-miz boshqa bir jihat. Mo'jizalarning yo'q joydan paydo bo'lmasligi masalaning bir qirrasini bo'lsa, uni qadrlash, hurmatini joyi-ga qo'yish, umuminsoniyat mulkiga aylantirish borasida qilinyotgan sa'y-harakat-lar ikkinchi muhim omildir. Yozuvchining butun talantini, iste'dodining jami ko'lami va qirrasini sig'dira oladigan oltin barkash esa O'zbekiston deb atalgan mamlakat edi. Birinchidan, biz turkiy tili madaniyat voris-larimiz va adib ijodining butun asrorni inki-shof etib, qabul qiladigan, sharhlab, avay-lab-saqlab, qadriga yetadigan darajadagi salohiyatli ming yilliklar madaniyatini o'zida jamlagan oltin sandiq — O'zbekistonda bo'lishi mumkin edi.

Bu holni Chingiz Aytmatovning o'zi ham his qilgan, chamas, u yozganlari “yovvoyi tungus yoki chechen” (Pushkin iborasi) qo'lga tushib qolishini xohlamagan, albatta, yurtimizga betakror mehr bilan qaragan, bu joylarda o'zgacha rohat qilgan. Uning asar-lari ayrim hollarda qirg'izchadan ham oldin o'zbek tilida nashr etilgan. Mohir tarjimonlar sa'y-harakati bilan ular xuddi ona tilimizda bitilgandek yangisilgan. Ana shunday mehr va e'tibor mahsuli sifatida O'zbekistonda ham o'ziga xos aytmatovshunoslik yuzaga keldi. Olimlarimiz adib asarlarining estetik nufuzini inkishof etish, kitobxonlar ularni bekamu ko'st tushunishi uchun oltin ka-lit tayyorlash borasida salmoqli ishlar qil-yaptilar. Jumladan, yozuvchi asarlarining o'zbekcha tarjimalari katta tadqiqotlarga mavzu bo'lmoqda. Bunday kuzatishlar, tad-qiqotlar to'xtab qolmaydi.

Adibning monumental romanlari — “Asr-ga tatigulik kun” va “Qiyomat” birinchi marta 1989-yilda G'afur G'ulom nomidagi nashriy-otda bir jildida chop etilgan. Unga taniqli tar-jimashunos olim, professor G'aybullat Sa-lomov so'ngso'z yozgan. Go'zal narsa har doim ko'zni quvontiradi. Jumladan, go'zal tarjima ham. Uning har bir uzvi go'zal bo'la-di va kichik go'zalliklar uyg'unlashib, komil go'zallikni tashkil qiladi. Tarjimashunos olimning aytishicha, bir ibora tarjimasini chinakam go'zallik kashf etgan. “Сюда и приближалась в тот день странная, сопровождаемая собакой верблюдная-тракторная похоронная процессия...”, degan gap: “Mana, bugun o'sha joyga tuyu-traktor aralash, it hamrohligida dafn karvoni yaqinlashmoqda edi” tarzida o'gi-rilibdi va olimni “сопровождаяемая собакой” iborasining “it hamrohligida” tarzida o'gi-rilishi chinakamiga hayratga solibdi: “...bu muallif uslubiga ham, ayni vaziyatga ham, tasvir mantig'iga ham bus-butun mos”.

Odatda “hamroh” deganda, o'zaro mu-loqotga kirishib ketadigan hamfikir, sherik tushunilsa, hayvonni hamroh deydisha ishti-boh tug'iladi. Mabodo o'sha gap quyidagicha o'g'irlisa-chi: “Mana bugun o'sha joyga izidan it ergashib kelayotgan tuyu-traktor aralash motam karvoni yaqinlashmoqda edi”.

Chingiz Aytmatov shunday yozdi, tarji-mon bunday o'girdi, olim shunday baholadi, muxlis bunday dedi — haqiqat qay tomon-da? Mana — ilm.



FARG'ONAGA UCH MILLION sayyoh tashrif buyuradi

Bugun Farg'ona viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish, sayyohlar oqimini oshirishga har qachongidan e'tibor oshdi. Shu maqsadda eko, agro, ekstremal, tibbiy, ko'ngilochar va boshqa turistik maskanlar tashkil etish borasida umumiy qiymati 1,1 trillion so'mlik 159 loyiha amalga oshirilmoqda. Bu ichki va tashqi turizm yo'nalishida yangi imkoniyat ekishlarini ochdi. Joriy yilning to'qqiz oyida viloyatga 2 million 627 ming sayyoh tashrif buyurdi. Bu o'tgan yilga nisbatan 142,4 foizga ko'p. Sayyohlarning viloyatda qolishi 1-2 kundan 3-5 kunga uzaydi.



dam olishga, hunarmandchilik an'analariga ko'proq qiziqish bildirmoqda. Suxtepada Farg'ona shahridagi ko'hna mahallalardan. Bu yerda dam olish mas-kanlari va xizmat ko'rsatish turlari ko'paydi. Qishloq oralab o'tgan Marg'ilonsoy irmoqlari — Mazkur tarixiy tepalik noyob obida sifatida qisman saqlanib qolgan. 2408 metr chuqur-likdan chiqayotgan shifobaxsh suv tarkibida 33 xil foydali element bo'lib, teri va oshqo-zon-ichak kasalliklarini davolashda yaxshi samara beradi. Avvallari hududda umumiy



maydoni 1,5 gektar sihatgoh ham bo'lgan. Ayni kunda mazkur maskanni qayta tiklash, aholi uchun dam olish joylari, mehmonxo-na qurish yuzasidan bildirgan takliflarimizni viloyat hokimi qo'llab-quvvatlab, amaliy yor-dam beryapti. Mahallada hunarmandchilik va agro turi-zmni rivojlantirishga bo'lgan e'tibor yuqori. Kosibchilik yo'nalishida “Xayrixon Kamol orzusi” oilaviy korxona maxsi-kovushlar tayyorlashni yo'lga qo'yd. Korxonada 70 dan ortiq mahalla xotin-qizlari kasanachilik asosida ishlamoqda. Yetmishdan ortiq xo-nadon tomorqasidagi issiqxonada turli sab-zavot va limon yetishtirilib, hududdagi bo'sh turgan binoda tikuvchilik sexi ishga tushirildi. Bu yerda sayyohlar uchun mahsulotlar ko'r-gazmasi va savdosi yo'lga qo'yilgan. Meh-monlar hunarmandchilik buyumlari tayyor-lash jarayonlari bilan bevosita tanishish va buyurtmalar berish imkoniyatiga ega.

Bunday xayrii va ibratli tashabbuslar viloyatning boshqa shahar va qishloqlarida ham keng qo'loch yoymoqda. Farg'ona tu-manidagi ko'plab qishloqlar hamda Qo'qon davlat o'mon xo'jaligi, “Vodiy tulporlari” ot sporti majmuasi, Quva tumanidagi “Karkidon” suv ombori qirg'oqlari, “Farg'ona anorlari” hamda “Mindonobod” agrosanoat firmalari bo'ylab sayohatlar tashkil etish yo'nalishlari-da yangi loyihalar ishlab chiqilgan. Beshariq tumanining Qiyali va Andarxon qishloqlari hamda So'x tumanida ekoturizm loyihalarini amalga oshirish, Oltiariq tumani-dagi Qiziltepa qishlog'ida mehmon uylari tashkil etishga alohida e'tibor qaratilyapti.

Xalqaro ahmiyatga ega A-373 magistral yo'li yoqasida turizm infratuzilmasini tashkil etish bo'yicha istiqbolli loyihalar va tashab-buslar qo'llab-quvvatlanmoqda. Avval qishlog'ida 24 ta oilaviy mehmon uylari tashkil etilib, ovqatlanish, sog'lomlash-tirish, transport, attraksion, ekskursiya singari qo'shimcha xizmat turlari yo'lga qo'yilgan. — So'lim tabiat qo'ynida dam oluvchilar-ga qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadi-da “Green valley” oilaviy mehmon uyi faoli-



yatini yo'lga qo'ydik, — deydi Quyoshxon Yo'ldosheva. — Bu mahalliy va xorijlik meh-monlari oqimini yanada kengaytirdi. Turkiya, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikis-tondan sayyohlar kelib, yaratilgan qulaylik va imkoniyatlardan mamnun ekanliklarini bildirdi.

Farg'ona tumani Satkak qishlog'ida 3,5 mingdan ortiq aholining aksariyati buloqlar va qishloq nomidagi ariq bo'yida yashaydi. Mo'ta-dil ob-havo qo'ynida joylashgan kichik qish-loqda 14 ta oilaviy mehmon uyi mavjud. Har yili bu qishloqqa 100 mingdan ortiq sayyoh va ziyoratchi keladi. “Satkak” ziyoratgohiga ichki turizm orqali keluvchilar soni ortib borayotgani infratuzilma tarmoqlari faoliyatini yaxshilashga bo'lgan e'tiborni oshirdi.

Hududlarning turizm salohiyati va mav-jud imkoniyatlaridan samarali foydalanish, “o'sish nuqtalari”ni aniqlab, sayyohlarni jalb etish bo'yicha asosiy daryeverlar belgi-lab olindi. Bu yo'nalishda birgina Rishton tumanida 12 ta turizm mahallasi, Farg'ona shahridagi bir qator ko'chalar bo'ylab turizm mavzesi, Qo'qon shahrida 4 ta turizm ko'-chasi tashkil etildi.

Sirasini aytganda, viloyatda turizm salo-hiyatini oshirish, turlarini ko'paytirish uchun imkoniyatlar bor. Bu bir yilda 3 millondan or-tiq xorijiy va mahalliy sayyohlarni Farg'ona-ga jalb etish imkonini beradi.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



o'quvchilar almashinuv dasturi bo'yicha meni Germaniyaga emas, Turkiyaga jo'natishdi. Boshida bir oz hayron bo'ldim — chunki men Germaniyaga borib, ota tilimni o'rganmoqchi edim. Lekin keyin o'ylab qarasam, Turkiyaga borish ame-rikalik uchun boshqacha bir tajriba bo'lar-kan, imkoniyatlar ham kengroq ko'rindi. Turkiya litseyida o'qib, turk tilini o'rgandim. Litseyi tamomlagach, AQSHda universi-tetga kirib, islomshunoslik bo'yicha o'qi-dim. Ayni vaqtda turk tilini o'rganishni ham davom ettirdim. Universitetdagi tahsilning oxirgi yili Izmirdagi Egey universitetidan bir profes-sor mehmon bo'lib keldi. U Kavkaz va O'rta Osiyodagi turkiy tillar bo'yicha mutaxassis edi. U bilan uchrashib, ixtisosligi bilan tan-ishib, O'rta Osiyo va Kavkaz davlatlariga qiziqqa boshladim. Boshida men unga ing-liz tilidan dars berishga harakat qildim, u esa menga ozarbayjonchani o'rgatardi. Oxiri shunday bo'ldiki, darslar bir chetda qolib, biz u bilan uning O'rta Osiyo mam-lakatlari qilingan safarlari haqida suhbat-lashadigan bo'ldik. Shu tariqa men ham bu mavzuga qiziqib qoldim. O'shanda 1993-yil edi. Magistratura o'zbek tili bo'yicha o'qish-ga qaror qildim. Chunki islom dunyosidagi eng yirik adabiy tillar hisoblangan usmonli

Ilhom MAMATQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori
Xurshid MAMATQULOV,
pedagogika fanlari doktori